Abstract. When using hot water, this method is called the hot water method, and when using hot steam, it is called the steam heat method. Hot water and saturated steam are characterized by very high heat content, making this method environmentally friendly. It is technically well-developed in industry. The efficiency of heat utilization is described by the method of transferring thermal energy into the formation, taking into account minimal heat loss from the steam generator to the wellbore and low formation losses.

Keywords: Saturated steam, heat transfer fluids, heating method, high-viscosity piles, energy consumption, saturation radius, volumetric heat capacity

КИРИШ.

ISSN 3030-3907

Агарда қудуққа иссиқлик ташувчилар термо изоляция қилинмаган насос компрессор қувурлари орқали ҳайдалганда иссиқлик 50% юқотилиши мумкин. Иссиқлик ташувчи қатламга ҳайдалишига иссиқликни кам юқотилиши, қатламда иссиқликдан тўлиқ фойдаланиш, бир тонна нефтни олиб ёқишга кам иссиқлик сарфлаш, технологияни мукаммаллаштириш ва энг қулай энерготежамкорлик самарасига эришилади. У ёки бу иссиқлик методи қўлланилиш самарадорлиги энергетик баланс ҳаражатлари билан баҳоланиб, нефтни қазиб олиш учун олинган энергия ва қазиб олиш учун сарфланган энергия орасида фарқ билан баҳоланади.

Марказлашган иссиқлик таъминотидан келадиган иссиқликни ҳар қандай технологияда иссиқлик ўтказувчилар тизимида ва қудуқ устуни орқали ҳайдалганди иссиқлик юқолиши муқаррардир. Иссиқликни юқолиш миқдори иссиқлик трассасини узунлигига, иссиқликни ҳимоялаш ишончлилиги, иссиқликни ҳимоя қилишда қўлланиладиган материалларини сифатига, иссиқлик ташувчиларни ҳайдаш режимига, ҳамда иссиқлик турига (буғ, сув) ва уни (ҳарорати, босими) таснифларига боғлиқ.

Юқори қовушқоқли уюмларни термик усулларда ишлаганда катта миқдордаги энергия сарфи ва капитал маблағлар талаб қилинади. Сўнги натижада қазиб олинган нефтни таннархи ошиб кетади. Иссиқлик методларида (полимерли иссиқлик усулида таъсир этиш, иссиқ сув) қовушқоқ нефт конлари ишланганда махсус ҳайдовчи қудуқлар орқали нефт уюмларига иссиқлик ташувчилар (60÷80 % ғоваклик хажмидаги) ҳайдалади, кейин ҳайдовчи қудуқлар орқали совуқ сув ҳайдалиб, у иссиқликни қазиб олувчи қудуққа сиқади, (одатда 2-3 қатламни ғоваклик хажмигача). Бундай конларда 1 тонна нефтни олиш учун 5-6 тонна иссиқлик ташувчилар ҳайдалади. Қазиб олинган нефтни нисбатан юқори таннархи ва юқори бўлмаган сўнги нефт олувчанлик коэффициенти (0.25÷0.27) иссиқлик усулларини кенг қўлланилишини ушлаб турувчи омиллардан биридир. Шунинг учун амалдаги усулларни мукаммаллаштириш ва самарали усулларни яратиш ва энг кичик энергия сарфланадиган усулларни яратиш муҳим масалалардан биридир.

Қатламга импульс – дозировкали иссиқ таъсир этиш

Бу янги технология асосида қийин олинадиган юқори қовушқоқли нефт заҳираси нефт конларини ишлашдаги энг муҳим масалаларни ечиш масаласи ётиб, катта миқдорда охирги нефт олувчанликни ва маблағ сарфлаб энегия ресурс тежамкорлигига эришиш мақсадга олинган.

ИДИТЭ технологиясининг моҳияти қатламга иссиқлик ташувчиларни ва совуқ сувни (тўлқинли иссиқлик фронтини шакллантириш) ўзгартириб

ISSN 3030-3907

даврий киритишда ҳисоб асосида қатламда п ропорцияли "самарали ҳароратни – $T_{сам}$" яратишдан иборат.

Иссиқлик ташувчиларни ҳажми $V(T)$ ва совуқ сувни ҳажми $V(C)$ қуйидаги формула ёрдамида ҳисобланади.

$$\frac{V(T)}{V(C)}=\frac{\left[V_{оо}\left(\frac{\beta M}{m}\left(T_{сот}-T_{о}\right)+\alpha\rho_{c}i_{c}\right)+\sqrt{\frac{\lambda_{о}C_{о}}{\pi}}\frac{2\beta}{mH}\sqrt{\frac{\alpha V_{гов}}{q}}\left(T_{сам}-T_{ў}\right)\right]}{\alpha V_{оо}\left(\rho_{T}i_{T}+\rho_{C}i_{C}\right)-V_{оо}\left[\frac{\beta M}{m}\left(T_{сам}-T_{ў}\right)\right]+\alpha\rho_{c}i_{c}+\sqrt{\frac{\lambda_{о}C_{о}}{\pi}}\frac{2\beta}{mH}\sqrt{\frac{\alpha V_{гов}}{q}}\left(T_{сам}-T_{ў}\right)};\quad (1.3)$$

бу ерда: $V_{ғов}$ – қатламни ишланадиган участкасидаги ғоваклик ҳажми фазаси, м^3;

m – бирлик улушдаги қатлам ғоваклиги;

$T_{САМ}$ – нефтни сиқувчи самарали ҳарорат бўлиб, ундан юқори ҳароратда нефтни қовушқоқлиги катта қатламга ўзгармайди, ^{0}C;

T_0 – қатламни бошланғич ҳарорати;

$P_cP_mP_c$ – қазиб олинадиган суюқлик иссиқлик ташувчи ва совуқ сувни зичлиги, кг/м^3;

$i_ci_ti_c$ –мос ҳолда қазиб олинадиган суюқлик иссиқлик ташуви ва совуқ сувни иссиқлик таркиби, ккал/кг;

M- суюқлик билан тўйинган қатламни ҳажмий иссиқлик сиғимдорлиги, ккал/м^3 ^{0}C;

λ_0 - атроф – муҳит жинсини иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти, ккал/м.с.^{0}C;

C_0 –атроф – муҳит жинсини ҳажмий иссиқлик сиғимдорлиги, ккал/м^3.^{0}C.;

H – қатлам қалинлиги, м;

q – қатламга агентни ҳайдаш кўрсатгичи, м^3/с;

α,β – ўлчамсиз коэффициентлар.

Жинслардаги иссиқликни, нефтлилик қатлами атрофидаги, ҳамда жараёнда иссиқлик самарадорлиги асосан маҳсулдор қатлам ва атроф - муҳит тоғ жинсини ўртасидаги ҳароратни фарқига боғлиқ.

Қатлам олинадиган суюқлик билан чиқиб кетадиган иссиқлик миқдори.

$$Q_2=\alpha V_{гов}\rho_{c}i_{c}\ 1.2$$

Атроф муҳит ва йўқотиладиган иссиқлик.

$$Q=\frac{2\beta V_{гов}}{mH}\sqrt{\frac{\lambda_{о}C_{о}}{\pi}}\left(T_{сам}-T_{о}\right)\sqrt{\frac{\alpha V_{гов}}{q}}\ (1.4.)$$

Юқоридаги фикрлардан маълумки, иссиқлик ташувчи порцияси ҳажмий $V(T)$ ва совуқ сувни $V(C)$ бир – бири билан нисбатлари боғлиқ.

$$\frac{V(T)}{V(C)}=\frac{Q(T)}{\alpha V_{гов}-Q(T)}\ (1.5.)$$

ISSN 3030-3907

α=2, β=1 га тенг деб олиб, *V(T)/V(C)* нисбатларга боғлиқ номограммасини ва самарали сиқиш темпратурасини ҳар хил қийматлардаги иссиқлик ташувчи қийматларни график тарзида келтирса бўлади. Аниқ конларда термик усулни қўлланилиши тажрибалари шуни кўрсатадики, қатламни сиқиш етарли эгаллаши учун қатлам орқали сиқувчи агентларни керакли ҳажмини ҳайдаш, яъни иккита ҳажмдаги ғоваклик (α≥2) ҳайдаш керак. Юқори қовушқоқли нефт уюмлари технологик ишлаш тархларида ҳайдаладиган агентларни *V(T)+ V(C)*-умумий ҳажми ғоваклик ҳажмига нисбатан 2*3 ҳажмда кўп ҳайдалиб, иқтисодий мақсади ва рентабеллиги аниқланади.

Масалан: маълум усуллардаги иссиқлик ҳошияларидан (ПТТЭУ, ВГВ) фойдаланиб, иссиқлик ҳошияси берилади, $Q(T)/V_{гов}$ -0,4÷1,0 чегарасида, унинг 2-3 ҳажмдаги сув билан қолдиқ нефт сиқилади.

α=2 - қиймати амалий кўрсаткичларга мувофиқ танланиб, 2- ни қиймати оширилганда қатламни нефтини атрофига иссиқликни йўқолиги ошади ва кейин иссиқлик таъсирини самарадорлигини пасайишига олиб келади.

Коэффициент β- қатламни иситилган қисмини улушини ифодалаш учун фойдаланилади (β<1-бунда тўлиш қатламни иситиш талаб қилинади, β=1 бўлса қатламни ҳамма қисмини иситиш керак).

Асосий амалий масала қуйидагича хулосаланади. Қандай миқдордаги иссиқлик ташувчиларни *Q(T)* қатламга ҳайдаш керак ва импульсьларни *Q(T)/Q(C)* иссиқлик ташувчиларни ва совуқ сув ҳажмини ғоваклик ҳажмига нисбатан 2 баробар *(Q(T)+Q(C)=2 $V_{гов}$)* ҳайдаш, натижада қатлам ҳамма қисмларида ҳарорат $T_{сам}$ - ни ўртача қатламига эришсин. Шунинг β-ни асосий қиймати коэффициенти β=1 тенгдир.

Шундай қилиб, α=1 ва β=1 га тенг бўлганда *V(T)/V(C)* нисбатларни доимий қийматлари иссиқлик таъсири давридаги доимий қийматлари иссиқлик таъсири давридаги қийматлари юқоридаги.(1.5)формула ёрдамида ифодаланади. Бундай мақсад учун бошқа (β<1) қийматдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлиб, бугда қатламни бир қисми $T_{сам}$ – қийматгача қизийди, керакли иссиқлик фронти бир қатор қазиб олувчи қудуқларгача етиб бормайди.

(1.5) формула ёрдамида тескари масалани ечиш мумкин. Масалан: технологик режим маълум нисбатдаги формулалар ёрдамида

$$\frac{V_{(T)}}{V_{(c)}} = A$$

аниқланади.

ISSN 3030-3907

Ишлатиш жараёнини ростлаш мақсадида иситилган вақтда иситиш динамикасини таҳлил қилиш мумкин.

Агентларни умумий миқдори $(Q(T)+Q(C)=0,5\ V_{гов}$ қийматда бериб, α=0,5 –ни бериб (1.3) формуладан β_1- ни аниқлаймиз; $T_{сам}$ – ҳароратгача исиган ғоваклик ҳажми бир қисмини аниқлаймиз.

Агар $T_{\alpha}=320\ ^0C$; $Д_{сам}=50\ ^0C$ бўлса, жараён қуйидаги импульслар нисбати $V(T)/V(C)=0,5$ да олиб борилади. Умумий ҳайдаш моменти $(Q(T)+Q(C)=0,5\ V_{гов}$ аниқланади, бунда 2=0,5 бўлганда β=0,32 қийматни оламиз.

Демак бу моментда қатлам ғоваклигининг учдан бир ҳажми $T_{сам}$-ҳароратгача исийди.

$V(T)/V(C)$ – нисбатларни аниқ қийматларда ечамиз. Қисқартирилгандан кейин $V_{гов}$ –ни (1.3) формуладан аниқлаймиз.

$$\frac{V_{(T)}}{V_{(C)}}=\frac{\frac{\beta * M}{m}(T_{сам}-T_o)+\alpha\rho_o i_c+\frac{2\beta}{m*H}\sqrt{\frac{\lambda_o c_o \alpha V_{гов}}{\pi q}}(T_{сам}-T_o)}{\alpha(\beta_x i_x-\rho_c i_c)-\left[(\frac{\beta * M}{m})\right]+\alpha\rho_c i_c+\frac{2\beta}{mH}\sqrt{\frac{\lambda_o c_o \alpha V_{гов}}{\pi q}}} \quad (1.6.)$$

Бундай ҳолатда параметрларни қуйидаги қийматлари қабул қилинган.

1) қатламнинг суюқлик билан тўйинган ҳажмий иссиқлик сиғимдорлиги

$$\text{M}=500\frac{ккал}{м^3{}^0C};$$

2) қатлам ғоваклиги m=0,2.

3) атроф тоғ жинсининг иссиқлик ўзатувчанлик коэффициенти

$$\lambda=1,8\frac{ккал}{м.с^0C};$$

4) атроф муҳит тоғ жинсини ҳажмий иссиқлик сиғимдорлиги

$$C_0=450\frac{ккал}{м^{30}C};$$

5) қатламга агентни ҳайдаш кўрсаткичи

$$q=150\frac{м^3}{кун}=6,25\frac{м^3}{с};$$

6) қатлам қалинлиги

$$h=30\ м.$$

7) ғоваклик ҳажми

$$V_{гов}=\pi R^2 * m * H;$$

8) Тўйиниш радиуси

$$R=150м.$$

9) суюқлик зичлиги

ISSN 3030-3907

$$\rho_c = 1000 \frac{кг}{м^3};$$

10) иссиқлик таркиби

$$i=20;$$

11) қатламни бошланғич температураси

$$T_0=20\ ^0C;$$

12) ўлчамсиз коэффициентлар

$$\alpha=2,\ \beta=1;$$

$\rho_т$ ва $i_т$ - қуйидаги жадвалдан оламиз

1.4-жадвал

T_α, ^{0}C	100	150	200	250	300	320			
						Қуруқлик даражаси			
						x=0	x=0,2	x=0,4	x=0,6
$\rho_т$, кг/м^3	960	926	870	806	720	670	670	670	670
$i_т$, ккал/кг	102	152	204	260	320	349	408	467	527

$\rho_c \cdot i_c$ – ўртача қиймати қатламдан олинадиган суюқликни баҳоланиши ифодаланган.

$$\rho_c i_c = \left(0{,}8\rho_c i_c + 0{,}2\rho_{нефт} i_{нефт}\right)\left[\frac{T_{сам}+T_0}{2}\right] = 440\left(T_{сам}+20\right)$$

Шундай қилиб, берилган қийматларни формулага қўйиб, қуйидагини оламиз:

$$\frac{V(T)}{V(C)} = \frac{2500\left(T_{сам}-20\right)+880\left(T_{сам}+20\right)+1950\left(T_{сам}-T_0\right)}{2\left(\rho_T-20000\right)-2500\left(T_{сам}-20\right)+880\left(T_{сам}+20\right)+1950\left(T_{сам}-T_0\right)}$$

Масалан: T_α=320^{0}C; x=0,4; $T_{сам}$=50^{0}C бўлганда

$$\frac{V(T)}{V(C)} = \frac{2500(320-20)+880(320+20)+1950(320-20)}{2(670-20000)-2500(320-20)+880(320+20)+1950(320-20)} =$$

$$= \frac{75000+61600+58500}{2[(670*467)-20000]-195100} = 0{,}5$$

Бундай ҳолатда иссиқлик агентини импульс совуқ агентни ярим импульсига тенг. Қатламга ғовакликни ҳажмига (α=2) нисбатан икки баробар сиқувчи агент ҳайдаб, умумий сарфни оламиз.

$$Q(T) = \frac{2}{3}V_{гов};\quad Q(C) = \frac{4}{3}V_{гов};$$

Бу ҳолат учун T_α=250^0 $T_{сам}$=50^{0}C бўлса,

$$\frac{V(T)}{V(C)} = \frac{195100}{2[(806*260)-20000]-195100} = 1{,}06$$

Шундай қилиб, ҳайдаш ҳарорати T_α=250^{0}C бўлса ўртача қатлам бўйича $T_{сам}$=50^{0}C бўлса, иссиқ ва совуқ агентларни импульси $V(T)=V(C)$ тенг бўлади.

ХУЛОСА.

ISSN 3030-3907

Охирги ўн йилликда нефт саноатининг ривожланиши янги конларни очиш ва эски конларда қазиб олиш суръатларини кучайтириш ишлари билан тавсифланади. Нефт ва газ соҳаси мутахассислари ва илмий ходимлари олдида мураккаб тузилмали нефт уюмларини қовушқоқ ва юқори қовушқоқли карбонат коллекторларини ишлатиш муоммоси ва унинг ечимини топиш масалалари туради. Бундай уюмларни тузилиш геологик физик спецификаси ҳамда уларни бундай флюидлар билан туйинганлик хоссалари қазиб олишни қийинлаштиради. Кўпгина нефт қазиб олиш ўлкаларидаги (Мексика, Канада, Ўрта ва Яқин Шарқ) асосий қидирилган заҳира нефт уюмлари карбонат коллекторлари билан кесилган (ўралган). Ўзбекистон Республикасида бундай юқори қовушқоқли нефт уюмларига Сурхондарё ўлкаси киради.

Жаҳон миқёсида бундай конларни ишлатиш усуллари шуни кўрсатадики, охирги нефт қазиб олиш кўрсаткичи 0,25-0,27 дан ошмаган. Юқори қовушқоқли уюмларни термик усулларда ишлаганда катта миқдордаги энергия сарфи ва капитал маблағлар талаб қилинади. Иссиқлик методларида қовушқоқ нефт конлари ишланганда махсус ҳайдовчи қудуқлар орқали нефт уюмларига иссиқлик ташувчилар (60÷80 % ғоваклик хажмидаги) ҳайдалади, кейин ҳайдовчи қудуқлар орқали совуқ сув ҳайдалиб, у иссиқликни қазиб олувчи қудуққа сиқади, бундай конларда 1 тонна нефтни олиш учун 5-6 тонна иссиқлик ташувчилар ҳайдалади**.** Қазиб олинган нефтни нисбатан юқори таннархи ва юқори бўлмаган сўнги нефт олувчанлик коэффициенти (0.25÷0.27) иссиқлик усулларини кенг қўлланилишини ушлаб турувчи омиллардан биридир. Шунинг учун амалдаги усулларни мукаммаллаштириш ва самарали усулларни яратиш ва энг кичик энергия сарфланадиган усулларни яратиш муҳим масалалардан биридир. Карбонат коллекторларда жойлашган юқори қовушқоқли нефтларни қазиб чиқаришда энг самарали усуллардан бири бу ҳали ҳам кислотали ишлов бериш бўлиб қолмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Агзамов А.Х. Влияние некоторых физико-геологических факторов на эффективность заводнения на примере месторождения Южный Аламышик // РНТС Сер. Нефтепромысловое дело и транспорт нефти, 1985. -№12. -С.8-10.
2. Агзамов А.Х. Применение циклического заводнения в условиях месторождений Ферганской нефтегазоносной области // Тр.СредазНИПИнефть. -М.: ВНИИОЭНГ, 1988. -С. 22-27.
3. Агзамов А.Х. Сравнительная оценка эффективности систем разработки карбонатных коллекторов на примере месторождений Ферганской

ISSN 3030-3907

нефтегазоносной области // Геология, геофизика и разработка нефтяных месторождений, 1988. -№2. -С. 18-20.

4. Агзамов А.Х., Ирматов Э.К. Использование метода главных компонент для оценки влияния геолого-промысловых факторов на показатели системы разработки залежей нефти // ЭИ Сер. Техника и технология добычи нефти. - М.: ВНИИОЭНГ, 1990. -№8. -С.3-8.

5. Ирматов Э.К., Агзамов А.Х. Обз.сер. Опыт и проблемы совершенствования разработки нефтяных и нефтегазовых месторождений Средней Азии и методы повышения их нефтеотдачи: Заводнение нефтяных месторождений с осложненными горно-геологическими условиями и пути повышения его эффективности. -Ташкент. -ФАН, 1991.-71 с.

6. Ирматов Э.К., Агзамов А.Х. Заводнение нефтяных месторождений с осложненными горно-геологическими условиями и пути повышения его эффективности. - Ташкент: Изд. АН РУз., 1992. - 60 с.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTONDA QO‘LLANILADIGAN DORIVOR O‘SIMLIKLARNING ZAMONAVIY FITOTERAPIYADAGI TERAPEVTIK SALOHIYATI

Jumayeva Zoxida Jamshitovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti
Toshmurodov Sardor Shodimurodovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti
Pardayeva Sohiba Bo`riyevna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand viloyati O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarning biologik faol xususiyatlari, farmakologik samaradorligi hamda zamonaviy fitoterapiyadagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida zanjabil (*Zingiber officinale*), yalpiz (*Mentha piperita*), rayhon (*Ocimum basilicum*), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*) va shuvoq (*Artemisia absinthium*) o‘simliklarining fitokimyoviy tarkibi hamda terapevtik imkoniyatlari xalqaro ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Maqolada ushbu o‘simliklarning antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, antimikrob, antiviral va immunomodulyator xususiyatlari molekulyar mexanizmlar nuqtai nazaridan yoritilgan. Shuningdek, klinik tadqiqotlar natijalari, fitoterapiya samaradorligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar va zamonaviy farmatsevtik istiqbollar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari dorivor o‘simliklarning zamonaviy tibbiyotda muhim terapevtik manba ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Fitoterapiya, dorivor o‘simliklar, gingerol, shogaol, mentol, glitserrizin, artemisinin, antioksidant, farmakologiya, bioaktiv moddalar.

Аннотация. В данной статье был проведен научный анализ биологически активных свойств, фармакологической эффективности и роли широко используемых в Узбекистане лекарственных растений в современной фитотерапии. В ходе исследования на основе международных научных источников изучены фитохимический состав и терапевтические возможности растений имбиря (Zingiber officinale), мяты (Mentha piperita), базилика (Ocimum basilicum), солодки (Glycyrrhiza glabra) и полыни (Artemisia absinthium). В статье освещаются антиоксидантные, противовоспалительные, антимикробные, противовирусные и иммуномодулирующие свойства этих растений с точки зрения молекулярных механизмов. Также были проанализированы результаты клинических исследований, статистические данные об эффективности фитотерапии и современные фармацевтические перспективы. Результаты исследований

ISSN 3030-3907

показали, что лекарственные растения являются важным терапевтическим источником в современной медицине.

Ключевые слова: Фитотерапия, лекарственные растения, гингерол, шогаол, ментол, глицеризин, артемизинин, антиоксидант, фармакология, биоактивные вещества.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the biologically active properties, pharmacological efficacy, and role of medicinal plants widely used in Uzbekistan in modern phytotherapy. During the study, the phytochemical composition and therapeutic potential of ginger (Zingiber officinale), mint (Mentha piperita), basil (Ocimum basilicum), licorice (Glycyrrhiza glabra), and wormwood (Artemisia absinthium) plants were studied based on international scientific sources. The article examines the antioxidant, anti-inflammatory, antimicrobial, antiviral, and immunomodulatory properties of these plants from the perspective of molecular mechanisms. Clinical research results, statistical data on the effectiveness of phytotherapy, and modern pharmaceutical prospects were also analyzed. Research results have shown that medicinal plants are an important therapeutic source in modern medicine.

Keywords: Phytotherapy, medicinal plants, gingerol, shogaol, menthol, glycerol, artemisinin, antioxidant, pharmacology, bioactive substances.

KIRISH.

So‘nggi yillarda tabiiy manbalarga asoslangan davolash usullariga qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining qariyb 80 foizi birlamchi tibbiy yordamda dorivor o‘simliklardan foydalanadi. Ayniqsa, sintetik preparatlarning nojo‘ya ta’sirlari kuchayib borayotgan bir davrda biologik faol tabiiy birikmalarga ega o‘simliklar muqobil terapevtik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston florasi dorivor o‘simliklarga nihoyatda boy bo‘lib, mamlakat hududida 4 mingdan ortiq o‘simlik turi uchraydi. Shulardan yuzlab turlari xalq tabobati va farmatsevtika amaliyotida qo‘llaniladi. Dorivor o‘simliklar tarkibidagi flavonoidlar, alkaloidlar, terpenoidlar va fenolik birikmalar organizmda murakkab biologik jarayonlarni boshqarishda ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Zanjabil (Zingiber officinale)

ISSN 3030-3907



Zanjabil tropik hududlarda yetishtiriladigan ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, uning ildizpoyasi farmakologik jihatdan yuqori qiymatga ega. Asosiy bioaktiv komponentlari gingerol, shogaol va zingerondan iborat.

Gingerol kuchli antioksidant xususiyatga ega bo‘lib, hujayra membranalarini erkin radikallardan himoya qiladi. Shogaol esa NF-κB signal yo‘llarini inhibe qilib, yallig‘lanish mediatorlari sintezini kamaytiradi. Ilmiy tadqiqotlar zanjabilning metabolik sindrom, artrit va respirator kasalliklarda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Yalpiz (Mentha piperita)



Yalpiz tarkibidagi mentol spazmolitik va antiseptik xususiyatga ega. U oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilash, ko‘ngil aynishini kamaytirish hamda nafas yo‘llarini kengaytirishda qo‘llaniladi.

Rayhon (Ocimum basilicum)

ISSN 3030-3907



Rayhon tarkibidagi evgenol va flavonoidlar antimikrob hamda antioksidant xususiyatlarga ega. Ushbu o‘simlik immun tizimini rag‘batlantirish va virusli kasalliklarning oldini olishda samarali hisoblanadi.

Qizilmiya (Glycyrrhiza glabra)



Qizilmiya ildizida glitserrizin moddasi mavjud bo‘lib, u yallig‘lanishga qarshi va ekspektorant ta’sir ko‘rsatadi. Klinik tadqiqotlarda qizilmiyaning bronxit va gastritda foydali ekanligi qayd etilgan.

Shuvoq (Artemisia absinthium)



ISSN 3030-3907

Shuvoq tarkibidagi artemisinin va terpenoid birikmalar antiparazitar va antimikrob xususiyatga ega. U parazitar infeksiyalar hamda ayrim yallig‘lanish jarayonlarida samarali vosita sifatida o‘rganilmoqda.

Farmakologik xususiyatlari

Dorivor o‘simliklar tarkibidagi bioaktiv moddalar organizmda oksidlovchi stressni kamaytirish orqali hujayralarni himoya qiladi. Ayniqsa, polifenollar va flavonoidlar lipid peroksidlanishini inhibe qilib, antioksidant himoya tizimini kuchaytiradi.

Antioksidant ta’sir

Fenolik birikmalar erkin radikallarni neytrallab, yurak-qon tomir va metabolik kasalliklar rivojlanishini sekinlashtiradi.

Yallig‘lanishga qarshi ta’sir

Bioaktiv moddalar siklooksigenaza va lipooksigenaza fermentlarini bostirib, prostaglandinlar hosil bo‘lishini kamaytiradi.

Antimikrob va antiviral faollik

Tadqiqotlar zanjabil, rayhon va shuvoq ekstraktlari gram-musbat hamda gram-manfiy bakteriyalarga qarshi faol ekanligini ko‘rsatdi.

Kasalliklarga nisbatan terapevtik samaradorlik

1-Jadval

Kasallik turi	Eng samarali o‘simlik	Asosiy faol modda
Shamollash va gripp	Zanjabil	Gingerol
Oshqozon buzilishlari	Yalpiz	Mentol
Yo‘tal va bronxit	Qizilmiya	Glitserrizin
Virusli infeksiyalar	Rayhon	Evgenol
Parazitar kasalliklar	Shuvoq	Artemisinin

Klinik va eksperimental tadqiqotlar

Randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarda zanjabil ekstrakti ko‘ngil aynishini 35–40% ga kamaytirgani aniqlangan. Shuningdek, meta-tahlillar zanjabilning glyukoza almashinuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan.


Laboratoriya tadqiqotlarida rayhon va yalpiz ekstraktlari bakterial koloniyalar o‘sishini sezilarli darajada susaytirgan. Qizilmiya ekstrakti esa respirator kasalliklarda yallig‘lanish markerlarini pasaytirgan.

Innovatsion istiqbollar

Bugungi kunda nano-fitoterapiya yo‘nalishi dorivor o‘simliklar asosidagi preparatlarning biologik o‘zlashtirilishini oshirish imkonini bermoqda. Nanokapsulalangan gingerol va artemisinin preparatlari farmatsevtikada istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

ISSN 3030-3907

O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarni sanoat asosida yetishtirish, ularni qayta ishlash va eksport qilish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega.



XULOSA.

Dorivor o‘simliklar zamonaviy tibbiyot va farmakologiyada muhim terapevtik manba hisoblanadi. Zanjabil, yalpiz, rayhon, qizilmiya va shuvoq tarkibidagi bioaktiv moddalar yuqori biologik faollikka ega bo‘lib, turli kasalliklarni profilaktika va davolashda samarali qo‘llanishi mumkin.

Fitoterapiyaning ilmiy asosda rivojlantirilishi, yangi fitopreparatlar yaratish hamda mahalliy dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish sog‘liqni saqlash tizimining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Semwal R.B. et al. Gingerols and shogaols: Important nutraceutical principles. *Phytochemistry*, 2015.
2. Dugasani S. et al. Anti-inflammatory effects of ginger compounds. *Journal of Medicinal Food*, 2016.
3. WHO Traditional Medicine Strategy 2014–2023.
4. Mashhadi N.S. et al. Anti-oxidative and anti-inflammatory effects of ginger. *Int J Prev Med*, 2013.
5. Kiani B.H. et al. Phytochemical and pharmacological properties of medicinal plants. *Frontiers in Pharmacology*, 2021.

ISSN 3030-3907

УДК 677.021.152.8

МОМИҚ ТОЗАЛАГИЧ ИШ УНУМДОРЛИГИНИ ТОЗАЛАШ САМАРАДОРЛИГИГА ВА МАҲСУЛОТ СИФАТИГА ТАЪСИРИ

Э.Б. Анарқулов

Гулистон давлат университети

Аннотация. Такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагични ускуна тозалаш самарадорлигига, ишлаб чиқарилган момиқ сифатига таъсири ўрганилди. Ифлослиги ўртача 6,47 % ва 12,46 % бўлган С-6524 селекцияли I ва II навли момиқни тозалашда ускунани самарали ишлаши билан чиқиндига момиқни энг кам миқдорда ажралиши, иш унумдорликни навлар бўйича 195,7 ва 218,2 кг/соатида юзага келди. Ускунадан кейинги тозаланган момиқнинг ифлослиги навлар бўйича ўртача 4,38 % ва 7,15 % га тенг бўлиб, ускуна тозалаш самарадорлиги 32,3 % ва 42,6 % ни ташкил этди. Момиқни тозалашда чиқиндига ажралган эркин момиқ миқдори қолган вариантларга қараганда кам бўлиб, навлар бўйича ўртача 16 % ва 24,4 % ни ташкил этди. Тозаланган момиқ таркибидаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши қолган иш унумдорликларда ишлаган ускунадан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улушига қараганда кам бўлиб, момиқ сифатининг яхшиланганлигидан O‘zMSt 383:2024 давлат стандарти бўйича I ва III навли А ва Б типли “Олий” синфга мансуб момиқ ишлаб чиқарилди. Пахтани дастлабки ишлашнинг мувофиқлаштирилган технологияси -ПДИ 70-2017 бўйича чигитни линтерлаш цехига 8 донадан 12 донагача 5ЛП русумли линтерларни ўрнатилиши ва бир дона 5ЛП линтерни момиқ бўйича иш унумдорлиги ўртача 30 кг/соат эканлигини инобатга олиб, чигитни линтерлашда линтер цехидан чиқаётган узлуксиз момиқ миқдорини тиқилмасдан самарали тозалаш учун таклиф этилган момиқ тозалаш ускунасини эни 600 мм, иш унумдорлиги ўртача 450 кг/соат бўлиш кераклиги аниқланди.

Калит сўзлар: Момиқ тозалагич, конструкция, аррали цилиндр, линтер, иш унумдорлик, тозалаш самарадорлик, сифат.

Abstract. The effect of the improved design of the lint cleaning equipment on the cleaning efficiency and the quality of the produced lint was studied. When cleaning the S-6524 selected I and II types of lint with an average impurity of 6.47% and 12.46%, the equipment effectively worked, resulting in the minimum amount of lint being released into waste, and the productivity was 195.7 and 218.2 kg/h for the types. The impurity of the cleaned lint after the equipment was 4.38% and 7.15% for the types, and the cleaning efficiency of the equipment was 32.3% and

ISSN 3030-3907

42.6%. The amount of free lint released into waste during lint cleaning was less than in the other options, averaging 16% and 24.4% for the types. The mass fraction of impurities and whole grains in the cleaned cotton wool was lower than the mass fraction of impurities and whole grains in the cotton wool produced by the equipment used in the remaining production facilities, and due to the improvement in cotton wool quality, cotton wool of the "High" class, types I and III, A and B, was produced according to the state standard UzMSt 383:2024. According to the harmonized technology of primary cotton processing - PDI 70-2017, taking into account that from 8 to 12 5LP linters are installed in the linting shop and that the average lint productivity of one 5LP linter is 30 kg/h, it was determined that the proposed lint cleaning equipment should have a width of 600 mm and an average lint productivity of 450 kg/h to effectively clean the continuous amount of lint leaving the linting shop during linting.

Keywords: Lint cleaner, design, saw cylinder, linter, productivity, cleaning efficiency, quality

Аннотация. Изучено влияние усовершенствованной конструкции оборудования для очистки ворса на эффективность очистки и качество получаемого ворса. При очистке выбранных типов ворса I и II S-6524 со средним содержанием примесей 6,47% и 12,46% оборудование работало эффективно, обеспечивая минимальное количество ворса, попадающего в отходы, а производительность составила 195,7 и 218,2 кг/ч для этих типов. Содержание примесей в очищенном ворсе после обработки оборудованием составило 4,38% и 7,15% для этих типов, а эффективность очистки оборудования — 32,3% и 42,6%. Количество свободного ворса, попадающего в отходы во время очистки, было меньше, чем при других вариантах, составляя в среднем 16% и 24,4% для этих типов. Массовая доля примесей и целых зерен в очищенной хлопковой вате была ниже, чем массовая доля примесей и целых зерен в хлопковой вате, произведенной с использованием оборудования, применяемого на остальных производственных мощностях, и благодаря улучшению качества хлопковой ваты была произведена вата класса «Высокий», типов I и III, A и B, в соответствии с государственным стандартом УзМСт 383:2024. В соответствии с гармонизированной технологией первичной переработки хлопка – ПДИ 70-2017, учитывая, что в волокнообрабатывающем цехе установлено от 8 до 12 5LP-линтообрабатывающих машин и что средняя производительность по волокну одной 5LP-линтообрабатывающей машины составляет 30 кг/ч, было определено, что предлагаемое волокнообрабатывающее оборудование должно иметь ширину 600 мм и среднюю производительность по волокну

ISSN 3030-3907

450 кг/ч для эффективной очистки непрерывного потока волокна, покидающего волокнообрабатывающий цех в процессе волокнообработки.

Ключевые слова: волокнообрабатывающая машина, конструкция, пильный цилиндр, волокно, производительность, эффективность очистки, качество

КИРИШ.

Пахтага дастлабки ишлов беришда ускунанинг тозалаш самарадорлиги ва ишлаб чиқарилган маҳсулотларни сифат кўрсаткичи асосий омиллардан бири бўлган ускунанинг иш унумдорлиги билан узвий боғликдир [1-3]. Буни инобатга олган ҳолда момиқни ифлос аралашмалардан тозалашда ускуна иш унумдорлигини тозалаш самарадорлигига ва момиқ сифатига таъсирининг тадқиқоти олиб борилди. Синов-тадқиқот ишлари С-6524 селекцияли намлиги I ва III навли пахтани қайта ишлашдан ишлаб чиқарилган I ва II навли момиқда ўтказилди. Тадқиқот ишлари даврида ускунани иш унумдорлиги унинг момиқни ўтказувчанлиги бўйича аниқланди. Бунда момиқни бошланғич ва ускунадан кейинги массаси ҳамда момиқни тозалашда ажраладиган чиқиндининг массаси синов ишлари жараёнида аниқлаб борилди.

Тозалаш жараёнининг самарадорлигини аниқлаш учун ускунадан олдинги бошланғич момиқдан ва ускунадан кейинги тозаланган момиқдан, момиқни тозалашда ажралган чиқиндидан намуналар олиниб, лаборатория шароитида тозаланган момиқни ифлослик даражаси, штапел узунлиги, чиқиндининг фракцион таркиби таҳлил қилинди.

Тажриба-тадқиқот ишлари момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 6,47 % бўлган I навли ҳамда момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 12,46 % бўлган II навли момиқларда ўтказилди [4, 5].


Тажриба ишларининг натижалари 1-4- расмларда келтирилган.

1- расмдаги гистограммадан ускуна иш унумдорлигининг ошиши билан чиқиндига ажралаётган эркин момиқ миқдори камайишини кўриш мумкин. Бу ўз навбатида ускуна қанчалик кичик иш унумдорликда ишласа, тозаланаётган оқимдаги момиқ шунчалик яхши
титилади ва чиқиндига шунчалик кўп миқдорда эркин момиқни ажралишини кўрсатмоқда.

Момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши 6,47 % бўлган С-6524 селекцияли I навли момиқни ускунада тозалашда, ускуна иш унумдорлигини 73,4 кг/соатдан 214,8 кг/соат гача ошиб бориши билан чиқиндига момиқни ажралиши 33,22 % дан 14,6 % гача камайди (1- расм). Бунда ускунани тозалаш самарадорлиги 32,6 % дан 29,7

ISSN 3030-3907

% га ўзгариб, иш унумдорлигини ошиши билан тозалаш самарадорлигини камайишини кўрсатди.



1- тозалаш самарадорлик, %, 2- умумий ифлослик, %, 3- чиқиндига ажралган момиқ миқдори, %.

1- расм. С-6524 селекцияли I- навли момиқни тозалашда ускуна тозалаш самарадорлигини ва чиқиндидаги умумий ифлослик ҳамда момиқ миқдорини ўзгаришини ускуна иш унумдорлигини ўзгаришига боғлиқлик гистограммаси

С-6524 селекцияли I навли момиқни тозалашда ускунани юқори иш унумдорлигида ишлаши билан тозалаш самарадорлигини юқори бўлиши момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 6,47 % бўлган момиқни ускунада тозалашда иш унумдорликни 195,7 кг/соатида юзага келди. Бунда ускунадан кейинги тозаланган момиқ таркибида ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 4,38 % ни ташкил этди. Момиқни тозалашда ускунанинг тозалаш самарадорлик 32,3 % ни ташкил этиб, ускунани бир текис тиқилмасдан ишлаши кузатилди. Момиқни тозалашда чиқиндига ажралган эркин момиқ миқдори қолган вариантларга қараганда кам бўлиб, ўртача 16 % ни ташкил этди.

Момиқни тозалашдан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши қолган иш унумдорликларда ишлаган ускунадан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улушига қараганда кам бўлиб, момиқ сифатининг яхшиланганлигидан O‘zMSt 383:2024 давлат стандарти бўйича I нав, А тип “Олий” синфга мансублиги аниқланди (2- расм).

ISSN 3030-3907

Сўнгра синов-тадқиқот ишлари II навли момиқда олиб борилди. Бунда момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 12,46 % бўлган С-6524 селекцияли II навли момиқни ускунада тозалашда, ускуна иш унумдорлигини 86,2 кг/соатдан 221,6 кг/соат гача оширилганда чиқиндига момиқни ажралиши 36,2 % дан 20,2 % гача камайди (3- расм). Ускунанинг тозалаш самарадорлиги эса 43,3 % дан 37,8 % га



а). Тозалагичдан олдинги момиқ




б). Тозалагичдан кейинги тозаланган момиқ

2- расм. С-6524 селекцияли I навли момиқни такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагичдан олдинги ва кейинги ташқи кўриниши

Ўзгариб, иш унумдорлигини ошиши билан тозалаш самарадорлигини камайиши аниқланди.

Тадқиқот ишлари даврида момиқни тозалашда ускунани юқори иш унумдорлигида ишлаши билан тозалаш самарадорлигини юқори бўлиши момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 6,47 % бўлган момиқни ускунада тозалашда иш унумдорликни 218,2 кг/соатида юзага келди. Бунда ускунани тозалаш самарадорлиги 42,6 % ни ташкил этиб, ускунани тиқилмасдан самарали ишлаши билан чиқиндига ифлос аралашмаларни ажралишини жадаллашиши кузатилди. Шу билан бирга момиқни

ISSN 3030-3907



1- тозалаш самарадорлик, %, 2- умумий ифлослик, %, 3- чиқиндига ажралган момиқ миқдори, %.

3- расм. С-6524 селекцияли II- навли момиқни тозалашда ускуна тозалаш самарадорлигини ва чиқиндидаги умумий ифлослик ҳамда момиқ миқдорини ўзгаришини ускуна иш унумдорлигини ўзгаришига боғлиқлик гистограммаси

Тозалашда чиқиндига ажралган эркин момиқ миқдори қолган вариантларга қараганда кам бўлиб, 24,4 % ни ташкил этди.

Момиқни тозалашдан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши қолган иш унумдорликларда ишлаган ускунадан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улушига қараганда кам бўлиб, 7,15 % ни ташкил этди.

Тозаланган момиқ таркибида ифлос аралашмалар ва бутун чигитлар массавий улушининг камлигидан момиқнинг сифати яхшиланди ва O‘zMSt 383:2024 давлат стандарти бўйича II нав А тип “Олий” синфга мансублиги аниқланди (4- расм).

Маълумки, пахтани дастлаки ишлашнинг мувофиқлаштирилган технологияси- ПДИ 70-2017 бўйича чигитни линтерлаш цехига 8 донадан 12 донагача 5ЛП русумли линтерлар

ўрнатилади [6]. Бир дона 5ЛП линтернинг момиқ бўйича иш унумдорлиги ўртача 30 кг/соат эканлигини инобатга олсак, линтер цехида 12 дона линтернинг ишлатилишида бир соатда ўртача 360 кг/соат момиқ ишлаб

ISSN 3030-3907

чиқарилади [7, 8]. Шунинг учун момиқ тозалагични саноат-тажриба нусхасини тайёрлашда чигитни линтерлаш цехининг момиқ бўйича соатбай иш унумдорлиги инобатга олинди ва таклиф этилган ускунани эни бунга мос равишда 600 мм этиб белгиланди.



а). Тозалагичдан олдинги момиқ



б). Тозалагичдан кейинги тозаланган момиқ

4- расм. С-6524 селекцияли II навли момиқни такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагичдан олдинги ва кейинги ташқи кўриниши

Лаборатория шароитида ўтказилган тадқиқот ишларининг натижасига таянган ҳолда эни 600 мм бўлган таклиф этилган тозалагичнинг иш унумдорлиги 450 кг/соатни ташкил этади. Бунда юқори ва паст навли момиқни тозалашда ускунанинг тозалаш самарадорлиги ўртача 32,3 % ва 42,6 % ни ташкил этди.

ХУЛОСА. Такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагич ускунаси иш унумдорлигини ускуна тозалаш самарадорлигига, ишлаб чиқарилган момиқ сифатига таъсирини ўрганиш учун С-6524 селекцияли I ва III навли пахтанинг I ва II навли момиқда тажриба-тадқиқот ишлари олиб борилди.

Тадқиқот ишлари даврида I ва II навли момиқни тозалашда ускунани самарали ишлаши билан чиқиндига момиқни энг кам миқдорда ажралиши, иш унумдорликни навлар бўйича 195,7 ва 218,2 кг/соатида юзага келди. Бунда ускунадан кейинги тозаланган момиқ таркибида ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши навлар бўйича ўртача 4,38 % ва 7,15 % га тенг бўлиб, ускуна тозалаш самарадорлиги 32,3 % ва 42,6 % ни ташкил этди. Юқорида қайд этилган иш унумдорликларда момиқни тозалашда чиқиндига ажралган эркин момиқ миқдори қолган вариантларга қараганда кам бўлиб, навлар бўйича ўртача 16 % ва 24,4 % ни ташкил этди. Тозаланган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши

ISSN 3030-3907

қолган иш унумдорликларда ишлаган ускунадан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улушига қараганда кам бўлиб, момиқ сифатининг яхшиланганлигидан O‘zMSt 383:2024 давлат стандарти бўйича I ва III навли А ва Б типли “Олий” синфга мансуб момиқ ишлаб чиқарилди.

ПДИ 70-2017 технологик регламент бўйича чигитни линтерлаш цехига 8 донадан 12 донагача 5ЛП русумли линтерларни ўрнатилиши ва бир дона 5ЛП линтерни момиқ бўйича иш унумдорлиги ўртача 30 кг/соат эканлигини инобатга олиб, чигитни линтерлашда линтер цехидан чиқаётган узлуксиз момиқ миқдорини тиқилмасдан улгурган ҳолда самарали тозалаш учун таклиф этилган момиқ тозалаш ускунасини эни 600 мм, иш унумдорлиги ўртача 450 кг/соат бўлиш кераклиги аниқланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Салимов А.М., Лугачев А.Е., Ходжиев М.Т. Технология первичной обработки хлопка. “Адабиёт учқунлари” . Ташкент. 2018. -184 с.
2. Ў.А.Норбоев, Э.Б.Анарқулов. Маҳаллий момиқ тозалаш ускуналарининг самарадорлиги бўйича изланишлар. Development Of Science 2025 / 5, Issue 5. Volume 1. ISSN 3030-3907. Pp. 369-377.
3. Ў.А.Норбоев, Э.Б.Анарқулов. Момиқ тозалаш ускуналари бўйича олиб борилган адабиётлар таҳлили. SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION 2025/5 40-bet.
4. O‘zMSt 381:2024. Пахта момиғи. Намуна танлаб олиш усуллари. Тошкент. 0204. -16 б.
5. O‘zMSt 383:2024. Пахта момиғи. Ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улушини аниқлаш усуллари. Тошкент. 2024.- 19 б.
6. Пахтани дастлабки ишлашнинг мувофиқлаштирилган технологияси (ПДИ 70 –2017). А.С. Камаловнинг умумий таҳрири остида. Тошкент, 2017, 91 б.
7. Паспорт пильного линтера 5ЛП. Ташкент. ТГСКБ по хлопкоочистке. 1981.- 18 с.
8. Т.М. Кулиев, Р.Ш. Сулаймонов ва б. Пахтани дастлабки ишлаш бўйича қўлланма. Тошкент- “Afvto-nashr”. 2019. -477 б.

ISSN 3030-3907

УДК 677.021.152.8

ТАКОМИЛЛАШТИРИЛГАН МОМИҚ ТОЗАЛАГИЧДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШДА СИНОВ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИ ЎТКАЗИШ

Ў.А.Норбоев
Жиззах политехника институти
Э.Б.Анарқулов
Гулистон давлат университети

Аннотация. Амалдаги ОВМ-А-1 русумли момиқ тозалагич билан такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагичларда ишлаб чиқаришда I ва II навли момиқларда синов ишлари ўтказилди. Синов ишлари натижасида таклиф этилган момиқ тозалагичда ифлослиги ўртача 6,4 ва 13,9 % бўлган I ва II навли момиқларни тозалашда тозаланган момиқнинг ифлослиги навлар бўйича ўртача 4,2 % ни ва 7,8 % ни, штапел узунлиги 7/8 мм ва 6/7 мм ни ташкил этиб, амалдаги тозалагичдан ишлаб чиқарилган момиқ сифатига қараганда навлар бўйича 0,6 (абс)% ва 0,76 (абс)% га яхшиланди ва O‘zMSt 456:2024 давлат стандарти бўйича I ва II нав А ҳамда Б типли “Олий” синфли момиқ ишлаб чиқарилди. Момиқни тозалашда тозалагичнинг тозалаш самарадорлиги навлар бўйича ўртача 34,4 % ва 43,9 % га тенг бўлиб, амалдаги момиқ тозалагич тозалаш самарадорлигига қараганда навлар бўйича 9,1 (абс)% ва 5,5 (абс)% га юқори эканлигини кўрсатди. Тозалагичнинг иш унумдорлиги навлар бўйича ўртача 396 кг/соатни ва 411 кг/соатни ташкил этиб, амалдаги момиқ тозалагич иш унумдорлигига қараганда ўртача 96 кг/соатга ва 102 кг/соатга юқори эканлиги аниқланди. Момиқни тозалашда чиқинди таркибида 1,5 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги калта момиқлар бўлиб, ажралаётган чиқиндига нисбатан 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ чиқинди массасига нисбатан навлар бўйича ўртача 2,19 % ва 3,23 % ни ташкил этди ва амалдаги момиқ тозалагичдан чиқиндига ажралган 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги момиққа қараганда навлар бўйича ўртача 8,26 (абс)% ва 8,39 (абс)% га кам эканлигини кўрсатди.

Калит сўзлар: Момиқ тозалагич, селекцион нав, момиқ, иш унумдорлик, тозалаш самарадорлик, ифлос аралашмалар, сифат.

Аннотация. Были проведены испытания ворса I и II типов при производстве усовершенствованных очистителей ворса с использованием существующего очистителя ворса ОВМ-А-1. В результате испытаний, при очистке ворса I и II типов со средним содержанием примесей 6,4 и 13,9% в предлагаемом очистителе ворса, среднее содержание примесей в очищенном ворсе составило 4,2% и 7,8% по сорту, при длине штапелей 7/8 мм и 6/7 мм, что

ISSN 3030-3907

улучшило качество ворса, производимого существующим очистителем, на 0,6 (абс)% и 0,76 (абс)% по сорту, и был получен ворс I и II типов А и В класса «Высокий» в соответствии с государственным стандартом У'зМСт 456:2024. Эффективность очистки очистителя от ворса в среднем составила 34,4 % и 43,9 % в зависимости от сорта, что на 9,1 % и 5,5 % выше, чем у фактического очистителя от ворса. Средняя эффективность очистителя составила 396 кг/ч и 411 кг/ч в зависимости от сорта, что на 96 кг/ч и 102 кг/ч выше, чем у фактического очистителя от ворса. При очистке от ворса отходы содержали короткий ворс с длиной волокон от 1,5 мм до 7,0 мм, и по сравнению с отделенными отходами, ворс с длиной волокон от 3,0 мм до 7,0 мм составлял в среднем 2,19 % и 3,23 % от массы отходов в зависимости от сорта, а волокна с длиной волокон от 3,0 мм до 7,0 мм, отделенные от фактического очистителя от ворса, попадали в отходы. показало в среднем на 8,26 (абс)% и 8,39 (абс)% меньше по сортам, чем пух.

Ключевые слова: Очиститель для пуха, сорт отбора, пух, эффективность, эффективность очистки, загрязнения, качество

Abstract. Tests were conducted on types I and II lint in the production of improved design lint cleaners with the existing OVM-A-1 lint cleaner. As a result of the test work, when cleaning types I and II lint with an average impurity of 6.4 and 13.9% in the proposed lint cleaner, the average impurity of the cleaned lint was 4.2% and 7.8% by grade, with a staple length of 7/8 mm and 6/7 mm, which improved the quality of lint produced by the existing cleaner by 0.6 (abs)% and 0.76 (abs)% by grade, and lint of types I and II A and B of the "High" class was produced according to the state standard U'zMSt 456:2024. The cleaning efficiency of the cleaner in lint removal averaged 34.4 % and 43.9 % by variety, showing 9.1 (abs)% and 5.5 (abs)% higher cleaning efficiency by variety than the actual lint cleaner. The efficiency of the cleaner was found to be 396 kg/h and 411 kg/h on average by variety, which was 96 kg/h and 102 kg/h higher than the actual fluff cleaner efficiency. In fluff cleaning, the waste contained short fluff with a staple length of 1.5 mm to 7.0 mm, and compared to the separated waste, the fluff with a staple length of 3.0 mm to 7.0 mm was an average of 2.19% and 3.23% of the waste mass by grade, and the 3.0 mm to 7.0 mm staple length separated into the waste from the actual lint cleaner. showed an average of 8.26 (abs)% and 8.39 (abs)% less by cultivar than fluff.

Keywords: Fluff cleaner, selection grade, fluff, performance, cleaning efficiency, dirty compounds, quality

КИРИШ.

ISSN 3030-3907

Назарий ва амалий тадқиқотлар натижасидан танлаб олинган момиқ тозалагичнинг тайёрланган чизмалари асосида такомиллаштирилган момиқ тозалагичнинг саноат-тажриба нусхаси ишлаб чиқарилди (1- расм). Ишлаб чиқарилган саноат-тажриба нусха Сирдарё вилояти “Boyovut techno claster” МЧЖ пахта тозалаш корхонасининг чигитни линтерлаш ва момиқни тозалаш технологик тизимидаги момиқ конденсори остига ўрнатилди (2- расм) ва амалдаги ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагич билан таққослаш - тадқиқот ишлари олиб борилди [1, 2].


Тадқиқот ишлари лаборатория шароитида танлаб олинган муқобил катталиклар бўлган тозалагичдаги текисловчи тароқни аррали цилиндр горизонтал ўқига нисбатан 35^0 оғиш бурчагида, арраларни вал ўқига нисбатан $1,5^0$ оғиш бурчагида, колосниклар сонини 9 дона ва цилиндр тезлигини 1000 айл/минда олиб борилди [3,4].

Таққослаш- тадқиқот ишлари Султон селекцияли I ва III навли пахтага дастлабки ишлов беришдан ишлаб чиқарилган I ва II навли момиқда ўтказилди. Бунда пахтанинг бошланғич намлиги навлар бўйича ўртача 11,4 % ва 13,1 % га, ифлослиги 7,5 % ва 10,9 % га тенг бўлди [5, 6].

Пахтага дастлабки ишлов беришдан ишлаб чиқарилган Султон селекцияли I ва II навли момиқни момиқ тозалагичга берилишидан олдинги момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши навлар бўйича ўртача 6,4 % ва 13,9 % ни ташкил этди [7, 8].

Такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагич билан амалдаги момиқ тозалагични тозалаш самарадорлигини, ишлаб чиқарилаётган момиқнинг сифатини, момиқни тозалашда ажралаётган чиқиндининг фракцион таркибини ўрганиш учун бошланғич ва тозалагичдан ишлаб чиқарилган момиқдан, ажралаётган чиқиндидан намуналар олиниб, корхона лабораториясида таҳлил қилинди. Таҳлил натижалари аниқ бўлиши учун намуналар 5 маротаба такрорланиб, ўртачаси олинди. Тадқиқот ишларининг натижаси 3 ва 4- расмларда келтирилган.

Дастлаб тажриба-тадқиқот ишлари ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагичда ўтказилди. Тозалагичга берилаётган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг



1, 2- момиқни қабул қилувчи ва чиқарувчи патрубоклар, 3-

ISSN 3030-3907

массавий улуши ўртача 6,43 % бўлган I навли момиқ тозалагичда тозалангандан сўнг тозаланган момиқнинг штапель узунлиги 7/8 мм ни, момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 4,8 % ни ташкил этди (3-расм). Бунда тозалагичнинг тозалаш самарадорлиги ўртача 25,3 % га тенг бўлди. Ишлаб чиқарилган момиқ сифат кўрсаткичи бўйича O‘zMSt 456:2024 давлат стандартига асосан I нав А тип

текисловчи тарок, 4-маҳкамловчи чўтка, 5- аррали цилиндр, 6- колосникли панжара, 7- чиқинди патрубоги, 8-электродвигатель, 9- тасмали узатма.

1- расм. Тозалагични электр двигатели билан биргаликдаги йиғма чизмаси

“Ўрта” синфга мансублигини кўрсатди [9]. Момиқни тозалашда ажралаётган чиқиндининг фракцион таркиби таҳлил қилинганда чиқинди таркибида йирик ифлосликлар 28,23 % га, майда ифлосликлар 33,96 % га, бутун чигитлар 3,62 % га тенглиги аниқланди. Бундан ташқари чиқинди таркибида 1,5 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги калта момиқ бўлиб, ажралаётган чиқиндига нисбатан 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ ўртача 10,45 % ни (3- расм), 1,5 мм дан 3,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ эса ўртача 23,74 % ни ташкил этди. Тозалагични иш унумдорлиги хронометраж усули билан аниқланганда 300 кг/соатга тенг бўлди. Бу кўрсаткичлар таклиф этилган момиқ тозалагичда момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 6,4 % бўлган I навли момиқни тозалашда тозаланган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун.

ISSN 3030-3907


чигитларнинг массавий улуши ўртача 4,2 % ни, штапель узунлиги 7/8 мм ни ташкил этди (3-расм). Бунда момиқ сифати амалдаги тозалагичдан ишлаб чиқарилган момиқ сифатига қараганда 0,6 (абс)% га яхшиланди ва O‘zMSt 456:2024 давлат стандарти бўйича I нав A тип “Олий” синфни ташкил этди.



1- шахта, 2- момиқ тозалагич, 3- тозаланган момиқ.

2- расм. Такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагич саноат-тажриба нусхасини ишлаш жараёни

Момиқни тозалашда тозалагичнинг тозалаш самарадорлиги ўртача 34,4 % га тенг бўлиб, амалдаги ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагич тозалаш самарадорлигига қараганда 9,1 (абс)% га юқори эканлигини кўрсатди (4- расм). Тозалагичнинг иш унумдорлиги хронометраж усули билан аниқланганда 396 кг/соатни ташкил этиб, амалдаги ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагичга қараганда ўртача 96 кг/соатга юқори эканлиги аниқланди. Момиқни тозалашда ажралаётган чиқиндини фракцион таркиби ўрганилганда чиқинди таркибида йирик ифлосликлар 38,27 % ни, майда ифлосликлар 31,62 % ни, бутун чигитлар 13,25 % ни ташкил этди. Бундан ташқари чиқинди таркибида 1,5 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги калта момиқлар бўлиб, ажралаётган чиқинди массасига нисбатан 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ ўртача 2,19 % ни ташкил этди ва амалдаги момиқ тозалагичдан чиқиндига ажралган 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги момиққа



ISSN 3030-3907

қараганда чиқиндига ўртача 8,26 (абс)% га кам миқдорда момиқ ажралганлиги аниқланди (3- расм). Бунда чиқиндига ажралган 1,5 мм дан 3,0 мм гача штапел узунликдаги момиқ эса ўртача 19,67 % ни ташкил этди.

Сўнгра тадқиқот ишлари Султон селекцияли пахтадан ишлаб чиқарилган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 13,9 % бўлган II навли момиқда ўтказилди. Ушбу момиқ ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагичда тозалангандан сўнг тозаланган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 8,56 % ни ташкил этиб, тозалаш самарадорлиги ўртача 38,4 % га тенг бўлди. Тозаланган момиқнинг штапель узунлиги ўртача 6/7 мм га тенг бўлиб, ифлослиги


1, 3- амалдаги тозалагичда тозаланган момиқнинг ифлослиги ва чиқиндидаги момиқнинг чиқинди массасига нисбатан миқдори, %; 2, 4- таклиф этилган тозалагичда тозаланган момиқнинг ифлослиги ва чиқиндидаги момиқнинг чиқинди массасига нисбатан миқдори, %.

3- расм. Амалдаги ва таклиф этилган тозалагичларда I ва II навли момиқларни ифлос аралашмалардан тозалашда тозаланган момиқ ифлослигини, чиқиндидаги момиқ миқдорини навлар бўйича ўзгариш гистограммаси

бўйича O‘zMSt 456:2024 давлат стандартига асосан II нав Б тип “Ўрта” синфга мансублиги аниқланди. Тозалагичнинг иш унумдорлиги хронометраж усулида аниқланганда ўртача 309 кг/соатни ташкил этди. Момиқни тозалашда ажралаётган чиқиндининг фракцион

ISSN 3030-3907

таркиби таҳлил қилинганда чиқинди таркибида йирик ифлосликлар 35,33 % га, майда ифлосликлар 22,61 % га, бутун чигитлар 5,28 % га тенглиги аниқланди. Бундан ташқари чиқинди таркибида 1,5 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги калта момиқ бўлиб, ажралаётган чиқиндига нисбатан 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ ўртача 11,62 % ни, 1,5 мм дан 3,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ эса ўртача 25,16 % ни ташкил этди. Бу кўрсаткичлар такомиллаштирилган момиқ тозалагичда момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 13,9 % бўлган II навли момиқни тозалашда тозаланган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 7,8 % ни, штапел узунлиги 6/7 мм ни ташкил этди (3-расм). Бунда момиқ сифати амалдаги тозалагичдан ишлаб чиқарилган момиқ сифатига қараганда




1- амалдаги момиқ тозалагични тозалаш самарадорлиги, %; 2- таклиф этилган момиқ тозалагични тозалаш самарадорлиги, %.

4- расм. Амалдаги ва таклиф этилган тозалагичларда I ва II навли момиқларни тозалашда ускуналар тозалаш самарадорлигини навлар бўйича ўзгариш гистограммаси

Ўртача 0,76 (абс)% га яхшиланди ва O‘zMSt 456:2024 давлат стандарти бўйича I нав Б тип “Олий” синфни ташкил этди. Момиқни тозалашда тозалагичнинг тозалаш самарадорлиги ўртача 43,9 % га тенг бўлиб, амалдаги ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагич тозалаш самарадорлигига қараганда 5,5 (абс)% га юқори эканлигини кўрсатди (4- расм) [59]. Тозалагичнинг иш унумдорлиги хронометраж усули билан аниқланганда 411 кг/соатни ташкил этиб, амалдаги ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагич иш унумдорлигига қараганда ўртача 102 кг/соатга юқори эканлиги аниқланди (5- расм). Момиқни тозалашда ажралаётган

ISSN 3030-3907

чиқиндининг фракцион таркиби ўрганилганда чиқинди таркибида йирик ифлосликлар 44,83 % га, майда ифлосликлар 19,36 % га, бутун чигитлар 11,14 % га тенг бўлди. Бундан ташқари чиқинди таркибида 1,5 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги калта момиқ бўлиб, ажралаётган чиқиндига нисбатан 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги момиқ ўртача 3,23 % ни ташкил этди ва амалдаги момиқ тозалагичдан чиқиндига ажралган 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги момиққа қараганда чиқиндига ўртача 8,39 (абс)% га кам миқдорда момиқ ажралганлиги аниқланди. Бунда 1,5 мм дан 3,0 мм гача штапел узунликдаги момиқ эса ўртача 21,44 % ни ташкил этди.



1- амалдаги момиқ тозалагични иш унумдорлиги, кг/соат; 2- таклиф этилган момиқ тозалагични иш унумдорлиги, кг/соат.

5- расм. Амалдаги ва таклиф этилган тозалагичларда I ва II навли момиқларни тозалашда ускуналар иш унумдорлигини навлар бўйича ўзгариш гистограммаси

Синов ишлари даврида такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагичда оқимдаги момиқни яхши ёйилиши, таралиши ҳисобига Тозалаш зонасида колосниклар билан ўзаро таъсирида момиқ таркибидан ифлос аралашмаларни ажралиши жадаллашди ва момиқ сифати яхшиланиб, ускунани тозалаш самарадорлиги ошди.

Тадқиқот ишларида таклиф этилган момиқ тозалагич амалдаги конструкцияли момиқ тозалагичга қараганда ўзининг авзаллигини кўрсатди.

Ўтказилган синов-тадқиқот ишларининг натижасидан ускуна иш унумдорлигини ва тозалаш самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқарилган момиқни сифатини яхшилаш билан чиқиндига момиқ ажралишини кескин камайтириш учун тозалагичдаги текисловчи тароқни цилиндр горизонтал ўқига нисбатан 35^0 оғиш бурчагида, арраларни цилиндр валига нисбатан $1,5^0$ оғиш бурчагида, колосниклар сонини 9 дона ва аррали цилиндр айланиш тезлигини 1000 айл/мин катталигида бўлиш кераклиги аниқланди [10].

ISSN 3030-3907

ХУЛОСА. Ишлаб чиқаришда амалдаги ОВМ-А-1 русумли момиқ тозалагич билан такомиллаштирилган конструкцияли момиқ тозалагичларда синов-таққослаш ишлари ўтказилди. Бунда момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши ўртача 6,4 ва 13,9 % бўлган I ва II навли момиқларни таклиф этилган ускунада тозалашдан ишлаб чиқарилган тозаланган момиқдаги ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улуши навлар бўйича ўртача 4,2 % ни ва 7,8 % ни, штапель узунлиги 7/8 мм ва 6/7 мм ни ташкил этиб, амалдаги тозалагичдан ишлаб чиқарилган момиқ сифатига қараганда навлар бўйича 0,6 (абс)% ва 0,76 (абс)% га яхшиланди ва O‘zMSt 456:2024 давлат стандарти бўйича I ва II нав А ҳамда Б типли “Олий” синфни ташкил этди.

Момиқни тозалашда тозалагичнинг тозалаш самарадорлиги навлар бўйича ўртача 34,4 % ва 43,9 % га тенг бўлиб, амалдаги ОВМ-А-I русумли момиқ тозалагич тозалаш самарадорлигига қараганда навлар бўйича 9,1 (абс)% ва 5,5 (абс)% га юқори эканлигини кўрсатди. Тозалагичнинг иш унумдорлиги навлар бўйича ўртача 396 кг/соатни ва 411 кг/соатни ташкил этиб, амалдаги момиқ тозалагич иш унумдорлигига қараганда навлар бўйича ўртача 96 кг/соатга ва 102 кг/соатга юқори эканлиги аниқланди. Момиқни тозалашда ажралаётган чиқиндини фракцион таркиби ўрганилганда чиқинди таркибида навлар бўйича йирик ифлосликлар 38,27 % ва 44,83 % ни, майда ифлосликлар 31,62 % ва 19,36 % ни, бутун чигитлар 13,25 % ва 11,14 ни ташкил этди. Бунда чиқинди таркибида 1,5 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги калта момиқлар бўлиб, ажралаётган чиқиндига нисбатан 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапель узунликдаги момиқ чиқинди массасига нисбатан навлар бўйича ўртача 2,19 % ва 3,23 % ни ташкил этди ва амалдаги момиқ тозалагичдан чиқиндига ажралган 3,0 мм дан 7,0 мм гача штапел узунликдаги момиққа қараганда навлар бўйича ўртача 8,26 (абс)% ва 8,39 (абс)% га кам эканлиги аниқланди.

Синов ишларининг натижаси таклиф этилган момиқ тозалагичда юқори ва паст навли момиқни тозалашда амалдагига қараганда иш унумдорлигини ва тозалаш самарадорлигини ошиши, ишлаб чиқарилган момиқ сифатини яхшиланиши билан чиқиндига момиқ ажралишини кескин камайишини кўрсатди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Т.М. Кулиев, Р.Ш. Сулаймонов ва б. Пахтани дастлабки ишлаш бўйича қўлланма. Тошкент- “Afvto-nashr”. 2019. -477 б.

ISSN 3030-3907

2. Ў.А.Норбоев, Э.Б.Анарқулов. Маҳаллий момиқ тозалаш ускуналарининг самарадорлиги бўйича изланишлар. Development Of Science 2025 / 5, Issue 5. Volume 1. ISSN 3030-3907. Pp. 369-377.
3. Ў.А.Норбоев, Э.Б.Анарқулов. Момиқни ифлос аралашмалардан тозалашда ишчи қисмлар таъсирининг тадқиқоти. ЖизПИ хабарномаси. №2, 2026.
4. Ў.А.Норбоев, Э.Б.Анарқулов. Arrali silindr bilan tekislovchi taroq zonasida xarakatdagi massali momiqni tekislash va tarash. ЖизПИ хабарномаси. №1, 2026.
5. O‘zMSt 380:2024. Пахта. Намликни аниқлаш усуллари. Тошкент, 2024.- 17 б.
6. O‘zMSt 552:2025. Пахтанинг ифлослигини аниқлаш усули. Тошкент, 2025, 12 б.
7. O‘zMSt 381:2024. Пахта момиғи. Намуна танлаб олиш усуллари. Тошкент, 2024.- 16 б.
8. O‘zMSt 383:2024. Пахта момиғи. Ифлос аралашмалар ва бутун чигитларнинг массавий улушини аниқлаш усуллари. Тошкент, 2024.- 19 б.
9. O‘zMSt 456:2024. Пахта момиғи. Техникавий шартлар. Тошкент, 2024.- 12 б.
10. Ў.А.Норбоев, Э.Б.Анарқулов.Момиқ тозалагич конструкциясини унинг самарадорлигига таъсири. ЖизПИ хабарномаси. №2, 2026.

ISSN 3030-3907

ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ И УРОВЕНЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

Шарипова Нигина Джуракуловна
Научный руководитель, преподаватель СамИСИ
Кодирова Асаль Алишеровна
Студентка факультета банковского дела и аудита Самаркандского института экономики и услуг.
E-mail: mamayusupova.asya@gmail.com
Абруев Давронбек Зафар угли
Студент факультета банковского дела и аудита Самаркандского института экономики и услуг.
E-mail: wolf11011993@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются мнения и суждения о финансовой грамотности населения и уровне использования цифровых банковских услуг. Однако эффективное внедрение и устойчивое использование цифровых банковских услуг в значительной степени зависят от уровня финансовой и цифровой грамотности населения. На основе анализа существующей макроэкономической литературы и структурных поведенческих моделей в исследовании подчеркивается, что финансовое образование выступает в качестве фундаментального катализатора широкомасштабной финансовой инклюзии.

Ключевые слова: финансовая грамотность, цифровой банкинг, финансовые технологии, финансовая инклюзия, поведение потребителей.

Abstract. This article examines opinions and perceptions regarding the financial literacy of the population and the level of digital banking service adoption. However, the effective implementation and sustainable use of digital banking services largely depend on the level of financial and digital literacy of the population. Based on an analysis of existing macroeconomic literature and structural behavioral models, the study emphasizes that financial education acts as a fundamental catalyst for large-scale financial inclusion.

Keywords: financial literacy, digital banking, financial technology, financial inclusion, consumer behavior.

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonligi va raqamli bank xizmatlarini qo‘llash darajasi haqidagi fikrlar va tasavvurlar o‘rganiladi. Biroq, raqamli bank xizmatlarini samarali joriy etish va barqaror foydalanish ko‘p jihatdan aholining moliyaviy va raqamli savodxonlik darajasiga bog‘liq. Mavjud makroiqtisodiy adabiyotlar va tarkibiy xulq-atvor modellarini tahlil qilish asosida,

ISSN 3030-3907

tadqiqot moliyaviy ta'lim keng ko‘lamli moliyaviy inklyuzivlik uchun asosiy katalizator bo‘lib xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, raqamli bank ishi, moliyaviy texnologiyalar, moliyaviy inklyuzivlik, iste'molchilarning xulq-atvori.

ВВЕДЕНИЕ.

Современный банковский ландшафт претерпел глубокий сдвиг парадигмы, вызванный технологическими достижениями в финансовом секторе. Цифровые банковские услуги, включающие мобильные приложения, платформы онлайн-транзакций, автоматизированные расчетные палаты и электронные платежные шлюзы, предлагают беспрецедентное удобство, снижение операционных издержек и непрерывную доступность по сравнению с традиционными физическими банковскими отделениями. В современной экономической среде финансовые институты все больше полагаются на эти децентрализованные платформы для оптимизации предоставления услуг и расширения своего присутствия на рынке.

Несмотря на быстрое развертывание передовых технологических инфраструктур, сохраняется значительный разрыв между доступностью цифровых банковских услуг и их фактическим, эффективным использованием различными слоями населения. Последние эмпирические исследования демонстрируют, что сама по себе технологическая доступность не гарантирует автоматического повсеместного внедрения или финансовой инклюзии.

В место этого финансовая грамотность, определяемая как совокупность осведомленности, знаний, навыков, взглядов и моделей поведения, необходимых для принятия обоснованных финансовых решений, выступает в качестве ключевого детерминанта того, как потребители взаимодействуют с современными цифровыми банковскими платформами. Целью данной работы является анализ структурной взаимосвязи между уровнями финансовой грамотности и темпами внедрения цифровых банковских услуг, а также выявление социально-экономических барьеров и стратегических решений, необходимых для преодоления существующих пробелов.

Взаимосвязь между когнитивными финансовыми возможностями и экономическим поведением потребителей широко задокументирована в современной экономической литературе. Исследователи давно утверждают, что финансовая грамотность служит основополагающим элементом индивидуального экономического благополучия и более широкой макроэкономической стабильности. Индивиды, обладающие более высоким

ISSN 3030-3907

уровнем финансовых знаний, демонстрируют значительно большую способность планировать долгосрочные цели, эффективно управлять долгами домохозяйств и продуктивно участвовать в официальных финансовых рынках.

С повсеместным проникновением технологий в финансовый сектор традиционная концепция финансовой грамотности превратилась в более сложную парадигму, известную как цифровая финансовая грамотность. Эта современная концепция подчеркивает, что нынешним потребителям требуются не только базовые математические и финансовые знания, но и специфические цифровые компетенции. К таким компетенциям относятся умение ориентироваться в сложных онлайн-интерфейсах, понимание электронных условий обслуживания и поддержание адекватной кибергигиены для защиты личных активов от цифрового мошенничества, фишинга и кражи личных данных.

Существующая литература также указывает на то, что низкий уровень финансовой грамотности создает существенные психологические барьеры, включая фундаментальное недоверие к цифровым алгоритмам и автоматизированным системам. Как следствие, менее грамотные слои населения склонны в значительной степени полагаться на операции с наличными деньгами или традиционные методы очного банковского обслуживания, даже когда цифровые альтернативы дешевле и более доступны.

В данном исследовании применяется качественный и концептуальный анализ, основанный на вторичных данных, полученных из рецензируемых экономических журналов, отчетов о мировом финансовом развитии и международных руководств по защите прав потребителей. Аналитическая база сосредоточена на оценке трансмиссионных механизмов, посредством которых различные уровни финансовой грамотности влияют на доверие потребителей, воспринимаемую простоту использования и фактическую частоту цифровых банковских операций. Путем синтеза различных эмпирических данных в статье формируется комплексная концептуальная модель, объясняющая, как когнитивные финансовые навыки напрямую влияют на выбор потребителей в экосистеме цифрового банкинга.

Финансовая грамотность напрямую влияет на процесс принятия решений потребителями относительно внедрения цифровых банковских услуг через несколько взаимосвязанных когнитивных каналов. Первый канал связан с восприятием риска. Потребители с ограниченной финансовой грамотностью часто воспринимают цифровой банкинг как изначально

ISSN 3030-3907

небезопасный из-за непонимания электронных мер безопасности. Этот высокий уровень воспринимаемого риска приводит к отторжению и избеганию цифровых приложений. Напротив, финансово грамотные люди обладают способностью отличать безопасные платформы от небезопасных, что позволяет им осуществлять расчетливое управление рисками и с уверенностью пользоваться онлайн-банкингом.

Второй канал включает в себя осведомленность о продукте и функциональную глубину использования. Низкая финансовая грамотность обычно ограничивает деятельность потребителя в цифровом банкинге самыми базовыми функциями, такими как проверка баланса счета или совершение простых операций по снятию наличных. В отличие от них, пользователи с развитой финансовой грамотностью способны понимать и использовать весь спектр цифровых банковских продуктов, включая мобильные микрозаймы, цифровые инвестиционные портфели, автоматизированные инструменты сбережений и международные денежные переводы.

Наконец, финансовая грамотность повышает понимание потребителем транзакционных издержек. Грамотные люди могут эффективно сравнивать структуры комиссионных вознаграждений, процентные ставки и скрытые издержки различных цифровых платформ, что позволяет им оптимизировать свое финансовое поведение. Неинформированные потребители, неспособные провести такие сравнения, часто по умолчанию возвращаются к дорогим традиционным методам или становятся жертвами хищнических финансовых услуг.

Интеграция цифрового банкинга широко признана мощным механизмом содействия финансовой инклюзии, особенно в развивающихся экономиках и странах с переходной экономикой, где физическая банковская инфраструктура развита слабо. Устраняя географические и логистические барьеры, связанные с традиционными банковскими отделениями, цифровые платформы теоретически могут предоставлять финансовые услуги отдаленным и недостаточно обслуживаемым слоям населения.

Однако при отсутствии адекватной финансовой грамотности расширение цифрового банкинга может непреднамеренно увеличить разрыв в неравенстве, создавая феномен, известный как цифровой разрыв. Когда государство или финансовый институт развертывают цифровые услуги без проведения соответствующих образовательных кампаний, выгоды от этого непропорционально распределяются в пользу богатых, городских и уже образованных слоев общества. Неохваченные банковскими услугами и

ISSN 3030-3907

маргинализированные слои населения остаются исключенными не потому, что у них нет доступа к смартфонам или интернету, а потому, что им не хватает когнитивных навыков и уверенности, необходимых для работы с этими системами.

В настоящее время оптимальному внедрению цифровых банковских услуг препятствуют несколько системных проблем. Во-первых, наблюдается выраженная асимметрия информации между коммерческими банками и широкой общественностью. Финансовые институты часто запускают сложные цифровые продукты, основанные на запутанных алгоритмах и перегруженные сложными юридическими терминами, не обеспечивая при этом упрощенного и доступного просвещения потребителей. Это оставляет уязвимых пользователей незащищенными перед высокими процентными ставками или непреднамеренными финансовыми обязательствами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Государственные органы и сектор образования должны разработать и внедрить комплексные национальные стратегии финансового просвещения, включив цифровую финансовую грамотность непосредственно в школьные учебные программы и общественные медиа-кампании. Коммерческие банки и разработчики финансовых технологий должны уделять приоритетное внимание принципам ориентированного на пользователя дизайна, создавая интуитивно понятные, упрощенные и локализованные цифровые интерфейсы, снижающие когнитивную нагрузку на малограмотных пользователей. Регуляторы должны создать надежные механизмы защиты прав потребителей, требующие абсолютной прозрачности от поставщиков цифровых финансовых услуг, тем самым снижая асимметрию информации и повышая доверие общественности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алиева, М. К. Цифровая трансформация банковского сектора и финансовое поведение населения. – Москва: КноРус, 2023. – 214 с.
2. Жалолов, Ш. Р. Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида банк хизматлари бозори ва уларнинг трансформацияси: Монография. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2022. – 180 б.
3. Радковская, Т. А., Шапошников, А. М. Финансовая грамотность в эпоху финтеха. – Санкт-Петербург: Питер, 2021. – 256 с.
4. Абдуллаев, А. А. Оценка влияния цифровизации банковских услуг на финансовую грамотность молодежи // Экономика и образование. – Тошкент, 2023. – № 4. – С. 142–149.

ISSN 3030-3907

5. Каримов, Н. Г., Тошмуродова, Н. А. Аҳолининг рақамли молиявий саводхонлигини ошириш макроиқтисодий барқарорлик омили сифатида // Молия ва банк иши. – Тошкент, 2024. – № 2. – Б. 33–41.
6. Кузина, О. Е. Цифровая финансовая грамотность: подходы к измерению и результаты мониторинга // Деньги и кредит. – Москва, 2021. – Т. 80, № 3. – С. 67–82.

ISSN 3030-3907

BOSHQARILADIGAN FRIKSION MEXANIZMLAR UCHUN MAXSUS QOTISHMALARNING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Axmedov Azamat Xaitovich
Toshkend davlat texnika universiteti Nazariy mexanika mashina va mexanizmlar nazariyasi kafedra mudiri DSc. Professori
Fayziyev Javohir Xayrulla
Toshkend davlat texnika universiteti doktoranti **o‘g‘li**

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun mo‘ljallangan maxsus qotishmalarning nazariy asoslarini aniqlash va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish maqsad qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, friksion tizimlarning samaradorligi materiallarning mikrostrukturasi, tribologik xususiyatlari va issiqlik barqarorligiga bevosita bog‘liq. Kukun metallurgiyasi asosidagi qotishmalar, yuqori entropiyali qotishmalar hamda kompozitsion materiallar yuqori yuklama va harorat sharoitida nisbatan barqaror ishlashi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda maxsus qotishmalarning boshqariladigan friksion mexanizmlardagi ishlashini kompleks nazariy model asosida baholash yetarli darajada yoritilmaganligi aniqlandi. Xulosa sifatida, friksion tizimlarda qo‘llaniladigan maxsus qotishmalarni tanlash mezonlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularning ishlash mexanizmlarini yagona nazariy yondashuv asosida umumlashtirish zarurligi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari yuqori ishonchlilikka ega friksion mexanizmlarni loyihalash uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshqariladigan friksion mexanizmlar, maxsus qotishmalar, tribologiya, yeyilish, kukun metallurgiyasi, yuqori entropiyali qotishmalar, nazariy tahlil.

Аннотация. Целью данной статьи является определение теоретических основ специальных сплавов для управляемых фрикционных механизмов и системный анализ современных научных исследований. Результаты показали, что эффективность фрикционных систем напрямую зависит от микроструктуры материалов, их трибологических свойств и термической стабильности. Установлено, что сплавы порошковой металлургии, высокоэнтропийные сплавы и композиционные материалы демонстрируют повышенную устойчивость при высоких нагрузках и температурах. Вместе с тем выявлено, что в существующих исследованиях недостаточно представлена комплексная теоретическая модель оценки работы специальных сплавов в управляемых фрикционных механизмах. В заключение обоснована необходимость научного определения критериев

ISSN 3030-3907

выбора специальных сплавов и их обобщения в рамках единого теоретического подхода. Полученные результаты могут служить теоретической базой для проектирования высоконадежных фрикционных механизмов.

Ключевые слова: управляемые фрикционные механизмы, специальные сплавы, трибология, износ, порошковая металлургия, высокоэнтропийные сплавы, теоретический анализ.

Abstract. This article aims to determine the theoretical foundations of special alloys for controlled friction mechanisms and to provide a systematic analysis of recent scientific studies. The results indicate that the efficiency of friction systems largely depends on material microstructure, tribological properties, and thermal stability. Powder metallurgy alloys, high-entropy alloys, and composite materials demonstrate improved stability under high loads and temperatures. However, existing studies insufficiently address a comprehensive theoretical model for evaluating the performance of special alloys in controlled friction mechanisms. The study concludes that it is necessary to establish scientifically grounded criteria for selecting special alloys and to integrate their operating principles within a unified theoretical framework. These findings can serve as a theoretical basis for designing highly reliable friction mechanisms.

Keywords: controlled friction mechanisms, special alloys, tribology, wear, powder metallurgy, high-entropy alloys, theoretical analysis.

KIRISH.

Zamonaviy texnika va mashinasozlik sanoatining jadal rivojlanishi yuqori ishonchlilik, uzoq xizmat muddati hamda murakkab ekspluatatsion sharoitlarda barqaror ishlay oladigan mexanik tizimlarni yaratishni talab etmoqda. Bunday tizimlar tarkibida boshqariladigan friksion mexanizmlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular moment uzatish, harakatni tartibga solish, energiya yo‘qotilishini kamaytirish hamda xavfsizlikni ta’minlash kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Mazkur mexanizmlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ishqalanish jarayonida yuzaga keladigan fizik hodisalar hamda kontakt juftliklarida qo‘llaniladigan materiallarning xususiyatlariga bog‘liqdir.

Friksion tizimlarda ishqalanish va yeyilish jarayonlari murakkab ko‘p omilli jarayon bo‘lib, ular kontakt bosimi, sirpanish tezligi, harorat, material mikrostrukturasi va sirt holati kabi ko‘plab parametrlar ta’sirida shakllanadi. Shu sababli so‘nggi yillarda tribologiya sohasida materiallarning ishlash mexanizmlarini chuqur o‘rganish hamda friksion juftliklar uchun optimal tarkibga ega qotishmalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi. Ayniqsa, yuqori yuklama va o‘zgaruvchan harorat sharoitida

ISSN 3030-3907

ishlaydigan mexanizmlar uchun oddiy konstruksion materiallar yetarli samaradorlikni ta’minlay olmaydi. Bu esa maxsus qotishmalarni yaratish va ularning nazariy asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maxsus qotishmalar friksion tizimlarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Ular yuqori mustahkamlik, yeyilishga chidamlilik, issiqlik barqarorligi hamda barqaror ishqalanish koeffitsientini ta’minlash kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, kukun metallurgiyasi asosida olingan qotishmalar bir jinsli struktura hosil qilish imkoniyati, tarkibni aniq boshqarish va g‘ovaklilik darajasini moslashtirish orqali issiqlikni samarali taqsimlash kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, yuqori entropiyali qotishmalar ko‘p komponentli tarkibi sababli yuqori mexanik mustahkamlik va strukturaviy barqarorlikni namoyon etadi, bu esa ularni og‘ir ish sharoitlarida qo‘llash istiqbollarini kengaytiradi. Kompozitsion friksion materiallar esa turli komponentlarning funksional xususiyatlarini birlashtirish orqali ishqalanish jarayonini ma’lum darajada boshqarish imkonini beradi.

Biroq friksion mexanizmlarning zamonaviy konstruksiyalari faqat yuqori chidamlilikka ega materiallarni qo‘llash bilangina cheklanmaydi. Hozirgi ilmiy yondashuvlarda ishqalanish jarayonini boshqarish, ya’ni friksion ko‘rsatkichlarni barqaror saqlash, aşınishni kamaytirish va issiqlik hosil bo‘lishini nazorat qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun material tanlashda nafaqat ularning mexanik xususiyatlari, balki mikrostrukturaviy barqarorligi, fazalararo o‘zaro ta’siri va termofizik parametrlari ham kompleks tarzda baholanishi lozim.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, friksion materiallarning tribologik xususiyatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, material tarkibi, kontakt mexanikasi va issiqlik jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni boshqariladigan friksion tizimlar doirasida yagona nazariy yondashuv asosida umumlashtirish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ko‘plab ishlarda materiallarning alohida xususiyatlari tahlil qilingan, biroq ularning mexanizm samaradorligiga integrallashgan ta’siri tizimli ravishda yoritilmagan. Natijada maxsus qotishmalarni tanlash mezonlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ularning ishlashini bashorat qiluvchi nazariy modellarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun mo‘ljallangan maxsus qotishmalarning nazariy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilish, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish hamda ushbu yo‘nalishdagi mavjud ilmiy bo‘shliqlarni aniqlashdan iborat.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari friksion tizimlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlarni rivojlantirish hamda yuqori ishonchlilikka ega mexanik qurilmalarni loyihalash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun mo‘ljallangan maxsus qotishmalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va umumlashtirishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, qiyosiy hamda mantiqiy-tahliliy yondashuvlar qo‘llanildi. Ilmiy manbalarni saralashda mavzuga bevosita aloqador bo‘lgan tribologiya, materialshunoslik va friksion tizimlar nazariyasiga oid maqolalar tanlab olindi.

Adabiyotlarni tanlash mezonlari quyidagilardan iborat bo‘ldi: (1) boshqariladigan yoki yuqori yuklama sharoitida ishlaydigan friksion mexanizmlarga oid tadqiqotlar; (2) kukun metallurgiyasi asosidagi qotishmalar, yuqori entropiyali qotishmalar va kompozitsion friksion materiallarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar; (3) material mikrostrukturasi, issiqlik hosil bo‘lish jarayoni va yeyilish mexanizmlarini yorituvchi nazariy yoki eksperimental tadqiqotlar. Tanlangan manbalar mazmuni konseptual jihatdan guruhlarga ajratilib, har bir yo‘nalish bo‘yicha umumlashtiruvchi tahlil amalga oshirildi. Tahlil jarayonida material tarkibi va uning tribologik javobi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida strukturaviy-parametrik yondashuvdan foydalanildi. Bunda mikrostrukturaviy omillar (fazalar tarkibi, donalar o‘lchami, g‘ovaklilik darajasi), mexanik ko‘rsatkichlar (qattiqlik, mustahkamlik, elastiklik moduli) hamda termofizik xususiyatlar (issiqlik o‘tkazuvchanlik, issiqlik kengayish koeffitsienti) alohida ko‘rib chiqildi va ularning ishqalanish koeffitsienti hamda yeyilish tezligiga ta’siri mantiqiy ravishda tahlil qilindi.

Shuningdek, boshqariladigan friksion mexanizmlarning ishlash sharoitlari tizimli yondashuv asosida baholandi. Bunda kontakt zonasida yuzaga keladigan bosim taqsimoti, sirpanish tezligi, issiqlik generatsiyasi va energiya dissipasiyasi kabi omillar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Material xususiyatlari va mexanizmning funksional ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aniqlash uchun konseptual integrallashgan model ishlab chiqish tamoyillari shakllantirildi.

Tadqiqotning nazariy xarakterini inobatga olgan holda, olingan ma’lumotlar umumlashtirildi, o‘zaro solishtirildi hamda ilmiy mantiq asosida tizimlashtirildi. Natijada mavjud ilmiy ishlarda yoritilgan natijalar asosida boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarni tanlash va baholash mezonlarini aniqlashga qaratilgan konseptual yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur metodologiya material mikrostrukturasi, tribologik parametrlar va issiqlik jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi hamda kelgusida matematik modellashtirish ishlariga nazariy asos yaratadi.

ISSN 3030-3907

NATIJALAR. Tribologiya va friksion tizimlar bo‘yicha olib borilgan so‘nggi tadqiqotlar boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarni tanlash hamda ularning nazariy asoslarini chuqur anglash imkonini berdi. Zhang (2025) o‘z sharh maqolasida kukun metallurgiyasi asosidagi friksion qotishmalarning struktura parametrlarini optimallashtirish orqali ishqalanish koeffitsientini barqarorlashtirish yo‘nalishlarini tizimli ravishda yoritadi. U KM qotishmalarda mikrostrukturaviy xislatlarni nazorat qilish friksion barqarorlikni oshirishi, issiqlik tarqalish ishlarini yaxshilashi va yeyilish jarayonlarini sekinlashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Zhangning natijalari boshqariladigan tizimlarda material parametrlarini boshqarish imkoniyatlarini baholashda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

High entropy alloys (HEA) friksion materiallar sifatida katta ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Kumar (2023) HEA’larning ko‘p komponentli tarkibi tufayli hosil bo‘ladigan yuqori qattiqlik, mexanik mustahkamlik va yeyilishga nisbatan chidamlilikni batafsil tahlil qiladi. Kumarning nuqtai nazaricha, HEA mikrostrukturasi kontakt zonasida yuzaga keladigan deformatsiya va termik yo‘qotish jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, bu esa friksion javobning barqaror bo‘lishiga xizmat qiladi. Biroq Wu va boshqalar (2022) friksion qoplamalarni tahlil qilgan sharhlarida HEA’larning tribologik parametrlarini aniq matematik modellashtirish bo‘yicha ilmiy bo‘shliqlar mavjudligini qayd etadi. Ushbu farq HEA’larning amaliy ko‘rsatkichlari bilan nazariy modellari orasidagi g‘ilofni ochib beradi.

Kompozitsion friksion materiallar bo‘yicha Jadhav (2019) ishlari metall matritsa va qo‘shimcha fazalarning funktsional xususiyatlarini baholab, bu komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning friksion koeffitsientga bevosita ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Jadhavning tahlili shuni aniqladiki, tarkibdagi qattiq moylovchi yoki mustahkamlovchi elementlar friksion javobni barqarorlashtiradi va aşınish jarayonini sekinlashtiradi. Lee (2024) uslubida olib borilgan tadqiqotlarda esa kompozitsion materiallarning mikrostrukturaviy barqarorligi va ishlash sharoitlariga bog‘liq friksion xususiyatlarining o‘zgarishi batafsil ko‘rib chiqiladi, bu esa kompozitsion materiallarni boshqariladigan tizimlar uchun moslashtirish yondashuvlarini yoritadi.

Friksion jarayonlarni boshqarish yondashuvi ham adabiyotlarda alohida e’tibor olgan. Tang va boshqalar (2022) o‘zlarining eksperimental ishlarida tashqi omillar, xususan yorug‘lik yoki magnit maydon orqali friksion javobni boshqarish usullarini tavsiflaydi. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, materialning ichki mikrostrukturasi bilan tashqi boshqaruv signallari o‘rtasidagi moslik friksion javobni samarali boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jiang (2021)

ISSN 3030-3907

adaptiv boshqaruv strategiyalarini nazariy jihatdan shakllantirgan ishida friksion tizimlarning dinamik javoblarini modellashtirish bo‘yicha konseptual yondashuvni taklif etadi, bu boshqaruv elementlarini material parametrlariga bog‘lashni ilmiy asoslashtiradi.

Ushbu izlanishlarda friksion jarayonlarning fundamental qonuniyatlari bo‘yicha Erdemir (2020) friksion va yeyilish mexanizmlarini chuqur tushuntirgan holda, kontakt mexanikasi hamda yuzaning mikrogeometriyasi faktorlari friksion javobga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini boshlang‘ich ilmiy asos sifatida beradi. U, shuningdek, materiallarning mexanik, termal va kimyoviy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy nuqtai nazardan muhokama qiladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar friksion tizimlarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi ko‘plab parametrlarni aniqlaydi: mikrostrukturaviy fazalar, issiqlik tarqalish mexanizmlari, tashqi boshqaruv omillari, sirt barqarorligi va komponentlar o‘rtasidagi fazalararo o‘zaro ta’sirlar. Biroq ular bo‘yicha mavjud ilmiy ishlarda material parametrlarini va boshqarish mexanizmlarini yagona nazariy modelda umumlashtirish ishlari cheklanganligi aniqlanadi. Shu sababli, boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarning ishlash mexanizmlarini birlashtirgan integrallashgan nazariy yondashuv ishlab chiqish ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda.

MUHOKAMA. O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili natijalari boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarni yaratish va tanlash masalasi zamonaviy materialshunoslik hamda tribologiya sohalarining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar tahlili kukun metallurgiyasi asosidagi qotishmalar, yuqori entropiyali qotishmalar hamda kompozitsion materiallar friksion tizimlarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kukun metallurgiyasi texnologiyasi yordamida olingan qotishmalar tarkibni boshqarish imkoniyati, strukturaviy bir jinslilik hamda optimal g‘ovaklilik darajasi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar kontakt zonasida issiqlikning bir tekis taqsimlanishiga xizmat qilib, termik zo‘riqishlarning kamayishiga olib keladi. Natijada friksion juftliklarning xizmat muddati uzayadi va tizimning umumiy ishonchliligi ortadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda fazalararo chegaralarning mexanik barqarorligi yetarli darajada nazariy asoslanmagani sababli materialning uzoq muddatli ishlashini prognozlash murakkabligi qayd etilgan.

Yuqori entropiyali qotishmalar esa ko‘p komponentli tarkibi tufayli yuqori qattiqlik va aşınishga chidamlilikni namoyon etadi. Ularning mikrostrukturaviy barqarorligi og‘ir yuklama va yuqori harorat sharoitida ham saqlanib qoladi, bu esa ularni friksion tizimlarda qo‘llash istiqbollarini kengaytiradi. Biroq mavjud ilmiy

ISSN 3030-3907

ishlarda ushbu qotishmalarning friksion javobini oldindan baholash imkonini beruvchi universal nazariy model shakllantirilmagan. Bu esa material parametrlarini optimallashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Kompozitsion friksion materiallar tarkibiy komponentlarning funksional xususiyatlarini birlashtirish orqali ishqalanish koeffitsientini barqarorlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, qattiq moylovchi qo‘shimchalar yoki keramika zarralarining kiritilishi yeyilish mexanizmlarini o‘zgartirib, sirt degradatsiyasini sekinlashtiradi. Biroq komponentlar o‘rtasidagi fazalararo o‘zaro ta’sir hamda ularning uzoq muddatli termomexanik barqarorligi yetarlicha tizimli o‘rganilmagan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, friksion tizimlarning samaradorligi faqat materialning mustahkamligi bilan belgilanmaydi. Kontakt zonasida yuzaga keladigan real bosim taqsimoti, plastiklik deformatsiyalari, sirt mikrogeometriyasining evolyutsiyasi hamda issiqlik generatsiyasi kabi omillar friksion jarayonning barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maxsus qotishmalarni tanlashda materialning mexanik va termofizik xususiyatlarini boshqaruv algoritmlari bilan uyg‘un holda baholash zarur.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarning yana bir muhim jihati shundaki, ularda adaptiv friksion tizimlar konsepsiyasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday tizimlar ishqalanish ko‘rsatkichlarini tashqi sharoitlarga mos ravishda o‘zgartirish imkonini beradi. Biroq material mikrostrukturasi va boshqaruv strategiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi integrallashgan nazariy yondashuvlar yetarli emas.

Shu nuqtai nazardan, boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarni baholashda mikrostrukturaviy parametrlar, kontakt mexanikasi va issiqlik hosil bo‘lish jarayonlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadigan konseptual model ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv friksion tizimlarning samaradorligini oshirish, yeyilishni kamaytirish hamda mexanik qurilmalarning ekspluatatsion ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan muhokama boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarni yaratish jarayoni ko‘p omilli optimallashtirish muammosi ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishda nazariy modellarni takomillashtirish kelgusida yuqori samaradorlikka ega, barqaror va uzoq muddat xizmat qiluvchi friksion tizimlarni loyihalash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

XULOSA. Mazkur tadqiqotda boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun mo‘ljallangan maxsus qotishmalarning nazariy asoslari hamda zamonaviy ilmiy

ISSN 3030-3907

tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. O‘tkazilgan adabiyotlar sharhi friksion tizimlarning samaradorligi material mikrostrukturasi, termofizik xususiyatlari va kontakt jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligiga bevosita aloqador ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, kukun metallurgiyasi asosidagi qotishmalar strukturaviy barqarorligi va issiqlikni samarali taqsimlash xususiyati bilan ajralib turadi, bu esa ularni yuqori yuklama sharoitida ishlaydigan friksion mexanizmlar uchun istiqbolli material sifatida baholash imkonini beradi. Yuqori entropiyali qotishmalar esa ko‘p komponentli tarkibi tufayli yuqori qattiqlik hamda yeyilishga chidamlilikni namoyon etib, og‘ir ekspluatatsion sharoitlarda qo‘llash uchun muhim materiallar qatoriga kiradi. Kompozitsion friksion materiallar tarkibiy komponentlarni boshqarish orqali ishqalanish koeffitsientini barqarorlashtirish va sirt degradatsiyasini kamaytirish imkonini berishi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili material mikrostrukturasi, issiqlik hosil bo‘lish jarayoni va friksion javob o‘rtasidagi bog‘liqlikni boshqariladigan mexanizmlar doirasida yagona nazariy model asosida ifodalash yetarli darajada amalga oshirilmaganligini ko‘rsatdi. Natijada maxsus qotishmalarni tanlash mezonlarini kompleks baholash hamda friksion tizimlarning ishlashini oldindan prognozlash imkonini beruvchi integrallashgan nazariy yondashuvni ishlab chiqish zarurati aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, boshqariladigan friksion mexanizmlar uchun maxsus qotishmalarni qo‘llash samaradorligi material parametrlarini chuqur tahlil qilish va ularni mexanizmning ishlash sharoitlari bilan uyg‘un holda baholashga bog‘liq. Taklif etilayotgan nazariy yondashuv friksion tizimlarni loyihalashda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi hamda kelgusida yuqori ishonchlilik va barqarorlikka ega mexanik tizimlarni yaratish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erdemir, A. (2020). Fundamentals of friction and wear. Tribology Letters, 68(3), 1–22.
2. Jadhav, S. P. (2019). Development of novel friction material for brake pad application. Materials Today: Proceedings, 18, 4115–4122.
3. Jiang, S. (2021). Research on adaptive friction compensation and control. International Journal of Mechanical Sciences, 191, 106072.
4. Kumar, D. (2023). Recent advances in tribology of high-entropy alloys: A critical review. Journal of Materials Science, 58(12), 7858–7880.
5. Lee, T. H. (2024). Comparative study of friction behaviors in composite materials. Wear, 528–529, 204470.

ISSN 3030-3907

6. Miller, R., & Jones, P. (2023). Thermal stability in tribological applications. Surface & Coatings Technology, 458, 129767.
7. Smith, J., & Brown, A. (2021). Powder metallurgy friction materials: A review. Journal of Materials Engineering and Performance, 30(6), 4453–4470.
8. Tang, S., Wang, L., & Liu, X. (2022). Light-controlled friction realized by a photorheological fluid. Tribology International, 160, 107044.
9. Wu, Y., Li, H., & Chen, J. (2022). Tribological behavior of high entropy alloy coatings: A review. Tribology International, 167, 107400.
10. Zhang, N. (2025). Current research on the design, properties and applications of wear-resistant materials. RSC Advances, 15(12), 5879–5903.

ISSN 3030-3907

АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ОСЛОЖНЕНИЙ И ПРОФИЛАКТИКИ ПОСТГИСТЕРЭКТОМИЧЕСКОГО СИНДРОМА У ЖЕНЩИН ДЕТОРОДНОГО ВОЗРАСТА.

Камарова Ибодат Нуриддиновна

Кафедра акушерство и гинекологии №3 Самаркандкий государственный медицинский университет .

Узбекистон.

Бахтийорова Лайло Сохиб кизи

Клинический ординатор кафедры акушерство и гинекологии

Аннотация. К диссертационной работе на тему: «Прогнозирование осложнений и современные методы профилактики постгистерэктомического синдрома у женщин репродуктивного возраста». Гистерэктомия (удаление матки) является одной из наиболее часто выполняемых операций в гинекологической практике и занимает одно из первых мест среди хирургических вмешательств у женщин. Несмотря на совершенствование оперативной техники, внедрение лапароскопических технологий частота осложнений после гистерэктомии остаётся высокой. По данным отдельных отечественных и региональных исследований и обзорных публикаций, встречаемость различных компонентов постгистерэктомического синдрома существенно варьирует: так, признаки овариальной недостаточности наблюдаются у 35–60 % женщин репродуктивного возраста в течение 1–2 лет после гистерэктомии по данным ряда исследований; частота опущения свода влагалища (vaginal vault prolapse) после гистерэктомии в литературе достигает до 40 % в отборных группах пациентов. Особенно остро данная проблема стоит у женщин репродуктивного возраста, для которых вмешательство имеет не только медицинские, но и социально-психологические последствия. После удаления матки у значительной части пациенток развивается комплекс функциональных, нейроэндокринных, метаболических и психоэмоциональных нарушений, известных под термином постгистерэктомического синдрома. Этот синдром включает преждевременную овариальную недостаточность, гормональный дисбаланс, расстройства вегетативной нервной системы, нарушения обмена веществ, снижение либидо, тревожные и депрессивные состояния, а также повышение риска сердечно-сосудистых и остеопоротических заболеваний. У молодых женщин это сопровождается преждевременным старением организма и существенным снижением качества жизни. Местные публикации и отчёты больниц Самарканда описывают клинические серии и частные исследования,

ISSN 3030-3907

указывающие на значимую долю функциональных и неврологических осложнений после гистерэктомии, однако согласованных статистических сводок на республиканском или областном уровнях в свободном доступе нет. С учётом отсутствия унифицированной статистики в Узбекистане и Самарканде, настоящая диссертация включает план ретроспективного анализа регистрационных данных Самаркандской области для определения локальных показателей распространённости и структуры синдрома. Отсутствие унифицированного подхода к прогнозированию риска осложнений и выбору профилактических мероприятий приводит к вариабельности результатов лечения и недостаточной эффективности стандартных программ реабилитации. В условиях роста числа гистерэктомий у женщин репродуктивного возраста актуальным является создание научно обоснованных методов прогнозирования и персонализированных профилактических стратегий, направленных на сохранение гормонального равновесия, снижение соматических и психоэмоциональных нарушений, а также повышение качества жизни пациенток.

Ключевые слова: постгистерэктомического, иммунологических.

Abstract. Relevance of the study. Hysterectomy (uterine removal) is one of the most frequently performed gynecological procedures and ranks among the most common surgical interventions in women. Despite the improvement of surgical techniques, the introduction of laparoscopic technologies, the incidence of complications after hysterectomy remains high. According to data from individual domestic and regional studies and review publications, the incidence of various components of posthysterectomy syndrome varies significantly: Thus, signs of ovarian insufficiency are observed in 35–60% of women of reproductive age within 1–2 years after hysterectomy, according to a number of studies; The incidence of vaginal vault prolapse after hysterectomy in the literature reaches up to 40% in selected groups of patients. This problem is especially acute for women of reproductive age, for whom the intervention has not only medical but also socio-psychological consequences. After removal of the uterus, a significant proportion of patients develop a complex of functional, neuroendocrine, metabolic and psychoemotional disorders, known as posthysterectomy syndrome. This syndrome includes premature ovarian failure, hormonal imbalance, autonomic nervous system disorders, metabolic disorders, decreased libido, anxiety and depression, and an increased risk of cardiovascular and osteoporotic diseases. In young women, this is accompanied by premature aging of the body and a significant reduction in quality of life. Local publications and hospital reports from Samarkand describe clinical series and individual studies indicating a significant proportion of

ISSN 3030-3907

functional and neurological complications after hysterectomy, but there are no publicly available, consistent statistical summaries at the national or regional levels. Given the lack of unified statistics in Uzbekistan and Samarkand, this dissertation includes a plan for a retrospective analysis of registration data from the Samarkand region to determine local prevalence rates and structure of the syndrome. The lack of a unified approach to predicting the risk of complications and choosing preventive measures leads to variability in treatment results and insufficient effectiveness of standard rehabilitation programs. In the context of an increasing number of hysterectomies in women of reproductive age, it is urgent to create scientifically based forecasting methods and personalized preventive strategies aimed at maintaining hormonal balance, reducing somatic and psychoemotional disorders, as well as improving the quality of life of patients.

Keywords: posthysterectomy, immunological.

Annatasiya. Histerektomiya (bachadonni olib tashlash) ginekologik amaliyotda eng ko‘p bajariladigan operatsiyalardan biri bo‘lib, ayollarda jarrohlik aralashuvlar orasida birinchi o‘rinda turadi.adqiqotning dolzarbligi. Histerektomiya (bachadonni olib tashlash) ginekologik amaliyotda eng ko‘p bajariladigan operatsiyalardan biri bo‘lib, ayollarda jarrohlik aral. Operatsion texnologiyalarni takomillashtirishga qaramay, Laparoskopik texnologiyalarni joriy etish histerektomiyadan keyingi asoratlar darajasi yuqori bo‘lib qolmoqda. Ayrim mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlar va sharh nashrlariga ko‘ra, postgisterektomiya sindromining turli tarkibiy qismlarining paydo bo‘lishi sezilarli darajada farq qiladi: shunday qilib, bir qator tadqiqotlar ma'lumotlariga ko‘ra, reproduktiv yoshdagi ayollarning 35-60 foizida histerektomiyadan keyin 1-2 yil davomida ovaryan etishmovchilik belgilari kuzatiladi; adabiyotda histerektomiyadan so‘ng vaginal forniksning prolapsasi (vaginal vault prolapse) bemorlarning tanlangan guruhlarida 40% gacha etadi. Ushbu muammo reproduktiv yoshdagi ayollarda ayniqsa dolzarbdir, ular uchun aralashuv nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-psixologik oqibatlarga ham ega.shbu muammo reproduktiv yoshdagi ayollarda ayniqsa dolzarbdir, ular uchun aralashuv nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-psixologik oqibatlarga ham ega. Bachadonni olib tashlaganingizdan so‘ng, bemorlarning katta qismi postg. Ushbu sindromga erta tuxumdon etishmovchiligi, gormonal muvozanat, avtonom asab tizimining buzilishi, metabolik kasalliklar, libidoning pasayishi, tashvish va depressiv holatlar, yurak-qon tomir va osteoporotik kasalliklar xavfining oshishi kiradi.shbu erta tuxumdon etishmovchiligi, gormonal muvozanat, avtonom asab tizimining buzilishi, metabolga keladi. Samarqand kasalxonalarining mahalliy nashrlari va hisobotlarida histerektomiyadan keyin funktsional va nevrologik asoratlarning sezilarli ulushini ko‘rsatadigan klinik

ISSN 3030-3907

Ultrabinafsha nurlanishning mikroorganizmlarga ta’siri dastlab XX asr boshlarida aniqlangan bo‘lsa-da, uning fizik va biologik xususiyatlari keyingi tadqiqotlarda chuqur o‘rganildi. Zamonaviy ilmiy manbalarga ko‘ra, UV-C diapazoni 200–280 nm oralig‘idagi elektromagnit nurlanishni qamrab oladi va aynan shu diapazon mikroorganizmlarni inaktivatsiya qilishda eng yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. UV-C nurlari nuklein kislotalar tomonidan yutilishi natijasida DNK va RNK molekulalarida fotokimyoviy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Xususan, timin dimerlarining hosil bo‘lishi mikroorganizmlarning genetik replikatsiya jarayonini izdan chiqaradi va ularning ko‘payish qobiliyatini yo‘qotishiga olib keladi. Tadqiqotlarda bakteritsid ta’sirning eng yuqori nuqtasi 260–265 nm oralig‘iga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilgan bo‘lib, amaliy qurilmalarda asosan 253,7–254 nm to‘lqin uzunligiga ega lampalardan foydalaniladi.

UV-C texnologiyasining samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar uning bakteriyalar, viruslar, zamburug‘lar va boshqa patogen mikroorganizmlarga nisbatan yuqori dezinfeksiya xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Biosan kompaniyasi mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda UV-C nurlanishining turli mikroorganizmlarni yuqori darajada inaktivatsiya qilishi hamda SARS-CoV-2 virusiga nisbatan ham samarali ekanligi qayd etilgan. Mualliflar UV-C nurlanishi mikroorganizmlarni kimyoviy vositalarsiz zararsizlantirish imkonini berishini va ushbu texnologiya havo hamda yuzalarni dezinfeksiya qilishda keng qo‘llanilayotganini ta’kidlaydilar.

So‘nggi yillarda UV-C texnologiyasining qo‘llanish sohalari sezilarli ravishda kengaydi. Chawla va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoatida, xususan sut mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarida UV-C nurlanishidan foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, UV-C texnologiyasi an’anaviy termik ishlov berish usullariga nisbatan ayrim hollarda mahsulotning oziqaviy va organoleptik xususiyatlarini yaxshiroq saqlash imkonini beradi. Mualliflar UV-C texnologiyasining energiya sarfi nisbatan pastligi va ekologik xavfsizligi uning asosiy afzalliklari ekanligini qayd etadilar.

Kutubxona va arxiv fondlarida mikrobiologik ifloslanish muammolari ham ko‘plab olimlarning e’tiborini tortmoqda. Bosco, Demichela, Barresi va Fissore tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qog‘oz materiallarning biologik yemirilish jarayonlari tahlil qilingan. Mualliflarning ta’kidlashicha, qog‘oz tarkibidagi

ISSN 3030-3907

sellyuloza ko‘plab mikroorganizmlar uchun ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi. Namlik va haroratning oshishi natijasida bakteriyalar hamda mog‘or zamburug‘larining rivojlanishi tezlashadi, bu esa hujjatlar va kitoblarning fizik holatiga jiddiy zarar yetkazadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mikroorganizmlar nafaqat madaniy meros obyektlariga zarar yetkazadi, balki inson salomatligi uchun ham xavf tug‘diradi.


Valentin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham kutubxona va muzey fondlaridagi biologik xavfsizlik muammolarini yoritishga bag‘ishlangan. Muallif mikroorganizmlar sporalarining havoda tarqalishi natijasida allergik reaksiyalar, nafas olish tizimi kasalliklari va boshqa salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkinligini qayd etadi. Shuningdek, tadqiqotda mikroorganizmlarning rivojlanishini nazorat qilish uchun ventilyatsiya tizimlari va dezinfeksiya texnologiyalarining ahamiyati alohida ta’kidlangan.

UV-C texnologiyasining rivojlanishi bilan bir qatorda uni avtomatlashtirish masalalari ham dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Li Qiang tomonidan ishlab chiqilgan dezinfeksiya roboti loyihasida UV-C lampalar, ultratovushli atomizatorlar va havo tozalash modullaridan iborat kompleks tizim taklif etilgan. Tadqiqotda robotning harakatlanishi, muhitni xaritalash va avtonom navigatsiya algoritmlari ishlab chiqilgan bo‘lib, dezinfeksiya jarayonlarini inson ishtirokisiz amalga oshirish imkoniyati ko‘rsatib berilgan.

Robotlashtirilgan UV-C tizimlarining samaradorligi Pfleger va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan tizimli tahlilda ham ko‘rib chiqilgan. Mualliflar 90 dan ortiq ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilib, UV-C robotlarining asosiy muammolari sifatida nurlanish dozasini to‘g‘ri hisoblash, dezinfeksiya qilinayotgan yuzalarga bir xil ta’sir ko‘rsatish va inson xavfsizligini ta’minlash masalalarini ko‘rsatganlar. Tadqiqot natijalari ko‘plab robotlashtirilgan tizimlarda UV-C dozasini nazorat qilish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, UV-C texnologiyasi dezinfeksiya jarayonlarida yuqori samaradorlikka ega bo‘lishiga qaramasdan, uning amaliy qo‘llanilishida avtomatlashtirish, xavfsizlik va energiya samaradorligi bilan bog‘liq muammolar mavjud. Shu sababli UV-C manbalari, sensorlar, mikrokontrollerlar va aqlli boshqaruv tizimlarini o‘zida mujassamlashtirgan mexatronik qurilmalarni yaratish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kutubxonalar, arxivlar, ta’lim muassasalari va tibbiyot obyektlarida foydalanishga mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan dezinfeksiya tizimlarini ishlab chiqish mikrobiologik xavfsizlikni ta’minlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

ISSN 3030-3907



2-rasm. UV-C asosida dezinfeksiya qiluvchi mexatronik qurilmaning funksional sxemasi

Mazkur tadqiqotda UV-C texnologiyasi asosida ishlovchi dezinfeksiya qiluvchi mexatronik qurilmalarning konstruktiv va funksional xususiyatlarini o‘rganish maqsadida tizimli tahlil, taqqoslash, modellashtirish hamda funksional loyihalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ultrabinafsha nurlanishning fizik xususiyatlari, mikroorganizmlarga ta’sir mexanizmlari va zamonaviy mexatronik tizimlarni loyihalash tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida UV-C texnologiyasidan foydalangan holda dezinfeksiya qiluvchi qurilmalar bo‘yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, xalqaro standartlar, texnik hisobotlar va ilmiy dissertatsiyalar tahlil qilindi. Xususan, ultrabinafsha nurlanishning dezinfeksiya samaradorligi, nurlanish dozasi, ekspozitsiya vaqti hamda mikroorganizmlarning UV-C ta’siriga sezgirligi bo‘yicha mavjud ilmiy natijalar o‘rganildi. Tadqiqot davomida kutubxona fondlari, arxiv hujjatlari va jamoat foydalanishidagi obyektlarni dezinfeksiya qilish uchun mo‘ljallangan texnologik yechimlarga alohida e’tibor qaratildi.

Taklif etilayotgan mexatronik qurilmaning umumiy funksional tuzilmasi mexanik, elektron va dasturiy modullarning integratsiyasi asosida shakllantirildi. Qurilmaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. UV-C nurlanish moduli;
2. boshqaruv moduli;
3. sensorlar tizimi;
4. himoya va xavfsizlik moduli;
5. ma’lumotlarni qayta ishlash va monitoring moduli.

UV-C nurlanish moduli dezinfeksiya jarayonining asosiy elementi hisoblanadi. Ushbu modul tarkibida 254 nm to‘lqin uzunligida ishlovchi germitsid lampalar joylashtiriladi. Ilmiy tadqiqotlarda aynan ushbu diapazon mikroorganizmlarni inaktivatsiya qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi qayd etilgan. Nurlanish intensivligi va ta’sir qilish vaqti dezinfeksiya qilinayotgan obyektning xususiyatlariga qarab tanlanadi. Qurilmada UV-C manbalarining


ISSN 3030-3907

joylashuvi nurlanishning maksimal qamrovini ta’minlash maqsadida simmetrik tarzda loyihalashtiriladi.

Qurilmaning boshqaruv moduli sifatida ESP32 yoki Arduino oilasiga mansub mikrokontrollerlardan foydalanish nazarda tutiladi. Mikrokontroller sensorlardan olingan ma’lumotlarni qayta ishlaydi, UV-C lampalarining ish rejimini boshqaradi va foydalanuvchi interfeysi bilan o‘zaro aloqa o‘rnatadi. Boshqaruv algoritmi dezinfeksiya vaqtini nazorat qilish, xavfsizlik parametrlarini tekshirish hamda qurilmaning ish holatini monitoring qilish funksiyalarini bajaradi.

Sensorlar tizimi qurilmaning xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Tizim tarkibiga eshik holatini aniqlovchi datchiklar, harakat sensorlari, yorug‘lik sensorlari va harorat nazorati elementlari kiritiladi. Xususan, UV-C nurlanish inson organizmi uchun zararli bo‘lganligi sababli dezinfeksiya kamerasi ochilganda yoki inson harakati aniqlanganda lampalarni avtomatik ravishda o‘chirish algoritmi qo‘llaniladi.

Qurilmada xavfsizlikni ta’minlash maqsadida ko‘p bosqichli himoya tizimi ishlab chiqildi. Himoya moduli operatorning UV-C nurlanish bilan bevosita kontaktda bo‘lishining oldini oladi. Bundan tashqari, qurilma korpusi ichki yuzalarining yuqori aks ettirish xususiyatiga ega materiallardan tayyorlanishi nurlanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.



3 rasm UV-C texnologiyasi asosidagi mexatronik qurilmaning funksional sxemasi

Tadqiqotning keyingi bosqichida qurilmaning ishlash algoritmi ishlab chiqildi. Algoritmga ko‘ra, dezinfeksiya qilinadigan obyekt qurilmaga joylashtirilgandan so‘ng sensorlar tizimi kameraning yopilganligini tekshiradi. Shundan keyin UV-C lampalari ishga tushiriladi va belgilangan vaqt davomida nurlanish jarayoni amalga oshiriladi. Belgilangan ekspozitsiya vaqti yakunlangach,

ISSN 3030-3907

tizim avtomatik ravishda lampalarni o‘chiradi va foydalanuvchiga dezinfeksiya jarayoni tugallanganligi haqida xabar beradi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi UV-C texnologiyasining biologik samaradorligi hamda mexatronik tizimlarning avtomatlashtirish imkoniyatlarini birlashtirish orqali dezinfeksiya jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan. Taklif etilgan metodologik yondashuv biologik xavfsizlik talablariga javob beruvchi, energiya jihatidan samarali va amaliy foydalanish uchun qulay bo‘lgan mexatronik qurilmalarni yaratish imkonini beradi.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari UV-C texnologiyasi asosida yaratilgan mexatronik qurilmalar mikrobiologik xavfsizlikni ta'minlashda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. UV-C nurlanishining yuqori dezinfeksiya samaradorligi uni tibbiyot, kutubxona, arxiv va sanoat sohalarida keng qo‘llash imkonini beradi.

Mexatronik tizimlar bilan integratsiyalash natijasida dezinfeksiya jarayonlari avtomatlashtiriladi, inson omili kamayadi va qurilmalar xavfsizligi oshadi. Kelgusida sun'iy intellekt, kompyuter ko‘rish tizimlari va IoT texnologiyalarini qo‘llash orqali bunday qurilmalarning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.S. Environmental Protection Agency. *Ultraviolet Disinfection Guidance Manual for the Final Long Term 2 Enhanced Surface Water Treatment Rule*. Washington, 2006.

2. Bosco F., Demichela M., Barresi A.A., Fissore D. *Microbial Contamination of Libraries and Archives: Risk Assessment and Contamination Control*. IOP Conference Series, 2020.

3. Z.A. Burxonov “Kutubxona muhitida kitoblarni intellektual usulda dezinfeksiya qilish tizimini taxlili.” [O‘zbekiston–Xitoy–Rossiya universitetlarining xalqaro ilmiy-texnik anjumani: fan,texnologiya va innovatsiyalar]. Andijon: 675-678, 2025. (in Uzbek)

4. Kuldashev E, Burxonov Z. “AXBOROT RESURS MARKAZLARINI RAQAMLI BOSHQARISH” “ILM-FAN, INNOVATSIYA VA ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR: GLOBAL INTEGRATSIYA VA TARMOQLARARO YECHIMLAR” MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLAR TO‘PLAMI

5. Zafarbek A’zamjon o‘g‘li Burkhonov, “Device for disinfecting books” Academic Journal of Science, Technology and Education | ISSN 3041-7848

ISSN 3030-3907

ISSIQLIK-MASSA ALMASHINISH JARAYONLARINI AVTOMATIK BOSHQARISH ORQALI ENERGIYA TEJASH

G‘anijonova Mohichehraxon Xusniddin qizi
Andijon davlat texnika instituti IBR kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi,
E-mail: mohichehraxong‘anijonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatik boshqarish orqali energiya tejash” muammosi kompleks ilmiy-texnik yondashuv asosida o‘rganilgan. Sanoat korxonalarida energiya resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, ayniqsa issiqlik almashinish qurilmalari va massa uzatish jarayonlari katta miqdordagi energiya sarfi bilan tavsiflanadi. Shu sababli texnologik jarayonlarni optimallashtirish va energiya yo‘qotishlarini kamaytirishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Tadqiqotda issiqlik almashinish apparatlarining ish rejimlari, ularning dinamik xususiyatlari hamda tashqi yuklamalarga nisbatan reaksiyasi tahlil qilingan. Jarayon samaradorligini oshirish maqsadida harorat, bosim, sarf (oqim tezligi) kabi asosiy texnologik parametrlarni real vaqt rejimida o‘lchash va boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy sensor tizimlaridan foydalanish ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, avtomatik boshqaruvning PID-regulyator asosidagi algoritmlari va mikroprotsessorli boshqaruv bloklari yordamida tizim barqarorligini ta’minlash usullari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida issiqlik-massa almashinish jarayonlarining matematik modellari tahlil qilinib, energiya balans tenglamalari asosida yo‘qotishlarni kamaytirish yo‘llari ishlab chiqildi. Jarayonni avtomatik boshqarish orqali ortiqcha issiqlik sarfini bartaraf etish, issiqlik almashinish koeffitsientini optimallashtirish hamda apparatlarning ish unumdorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berildi.Olingan natijalarga ko‘ra, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish energiya iste’molini sezilarli darajada (taxminan 15–30 %) kamaytirishi, texnologik jarayonlarning barqaror ishlashini ta’minlashi hamda inson omiliga bog‘liq xatoliklarni minimallashtirishi aniqlandi. Bundan tashqari, zamonaviy SCADA tizimlari va raqamli boshqaruv platformalaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini markazlashtirilgan monitoring qilish imkonini beradi.Shuningdek, issiqlik-massa almashinish jarayonlarida sun’iy intellekt va adaptiv boshqaruv algoritmlarini qo‘llash kelajakda yanada yuqori energiya samaradorligiga erishish imkonini berishi ta’kidlanadi. Bu esa sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtiradi va “aqlli ishlab chiqarish” konsepsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: issiqlik almashinuvi, massa almashinuvi, avtomatik boshqaruv, energiya tejash, PID-regulyator, SCADA tizimlari, sun’iy intellekt, adaptiv boshqaruv, sensorlar, sanoat avtomatikasi, energiya samaradorligi.

Аннотация. В данной статье проблема «Энергосбережение посредством автоматического управления процессами тепло- и массообмена» исследуется на основе комплексного научно-технического подхода. Эффективное использование энергетических ресурсов на промышленных предприятиях является одной из актуальных задач современности, поскольку теплообменные аппараты и процессы массопереноса характеризуются значительными затратами энергии. В связи с этим возрастает роль автоматизированных систем управления в оптимизации технологических процессов и снижении энергетических потерь. В исследовании проанализированы режимы работы теплообменных аппаратов, их динамические характеристики и реакция на внешние возмущающие воздействия. С целью повышения эффективности процесса рассмотрено применение современных сенсорных систем, обеспечивающих измерение и управление в режиме реального времени такими основными технологическими параметрами, как температура, давление и расход (скорость потока). Кроме того, изучены методы обеспечения устойчивости системы с использованием алгоритмов автоматического управления на основе ПИД-регуляторов и микропроцессорных блоков управления. Ходе исследования были проанализированы математические модели процессов тепло- и массообмена, а также разработаны методы снижения потерь на основе уравнений энергетического баланса. Показаны возможности устранения избыточного расхода тепловой энергии, оптимизации коэффициента теплообмена и повышения производительности оборудования посредством автоматического управления процессом. Полученные результаты свидетельствуют о том, что внедрение автоматизированных систем управления позволяет существенно снизить энергопотребление (примерно на 15–30 %), обеспечить стабильность технологических процессов и минимизировать ошибки, связанные с человеческим фактором. Кроме того, использование современных SCADA-систем и цифровых платформ управления предоставляет возможность централизованного мониторинга производственных процессов. Также отмечается, что применение технологий искусственного интеллекта и адаптивных алгоритмов управления в процессах тепло- и массообмена в перспективе позволит достичь еще более высокой энергетической эффективности. Это будет способствовать

ISSN 3030-3907

ускорению процессов цифровой трансформации промышленных предприятий и развитию концепции «умного производства».

Ключевые слова: теплообмен, массообмен, автоматическое управление, энергосбережение, ПИД-регулятор, SCADA-системы, искусственный интеллект, адаптивное управление, сенсоры, промышленная автоматизация, энергоэффективность.

Abstract. This article investigates the problem of “Energy Saving through Automatic Control of Heat and Mass Transfer Processes” using a comprehensive scientific and technical approach. The efficient use of energy resources in industrial enterprises is one of the most important challenges today, especially since heat exchangers and mass transfer processes are characterized by significant energy consumption. Therefore, the role of automated control systems in optimizing technological processes and reducing energy losses is becoming increasingly important. The study analyzes the operating modes of heat exchange equipment, their dynamic characteristics, and their response to external disturbances. To improve process efficiency, the application of modern sensor systems capable of measuring and controlling key technological parameters such as temperature, pressure, and flow rate in real time is considered. Furthermore, methods for ensuring system stability through PID-controller-based control algorithms and microprocessor control units are examined. During the research, mathematical models of heat and mass transfer processes were analyzed, and approaches for reducing energy losses based on energy balance equations were developed. The possibilities of eliminating excessive heat consumption, optimizing the heat transfer coefficient, and increasing equipment productivity through automatic process control were demonstrated. According to the obtained results, the implementation of automated control systems can significantly reduce energy consumption (approximately 15–30%), ensure stable operation of technological processes, and minimize human-related errors. In addition, the use of modern SCADA systems and digital control platforms enables centralized monitoring of industrial processes. The study also emphasizes that the application of artificial intelligence technologies and adaptive control algorithms in heat and mass transfer processes can further improve energy efficiency in the future. This will accelerate the digital transformation of industrial enterprises and contribute to the development of the “smart manufacturing” concept.

Keywords: heat transfer, mass transfer, automatic control, energy saving, PID controller, SCADA systems, artificial intelligence, adaptive control, sensors, industrial automation, energy efficiency.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Dunyo miqyosida aholi sonining ortishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hamda texnologik taraqqiyot natijasida energiya resurslariga bo‘lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Mavjud energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli energiya tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.Ayniqsa, kimyo, neft-gaz, oziq-ovqat, farmatsevtika va energetika sanoatida keng qo‘llaniladigan issiqlik-massa almashinish jarayonlari katta hajmdagi energiya iste’moli bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarda issiqlik energiyasining sezilarli qismi turli yo‘qotishlar ko‘rinishida sarflanadi. Natijada ishlab chiqarish tannarxi ortadi, energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi pasayadi hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir kuchayadi. Shu bois issiqlik-massa almashinish qurilmalarining ishlash rejimlarini optimallashtirish va energiya yo‘qotishlarini minimallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy boshqaruv usullarida texnologik parametrlar, jumladan harorat, bosim, sarf va konsentratsiya ko‘rsatkichlari asosan operator tomonidan nazorat qilinadi. Inson omiliga bog‘liq bo‘lgan bunday boshqaruv usullari ko‘pincha jarayonning optimal rejimdan chetga chiqishiga, energiya sarfining ortishiga hamda mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, murakkab texnologik tizimlarda parametrlarning tez o‘zgarishi operator tomonidan o‘z vaqtida baholanmasligi mumkin.

Zamonaviy avtomatik boshqaruv tizimlari esa sensorlar, mikroprotsessorlar, dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlar (PLC), SCADA tizimlari va sun’iy intellekt elementlari yordamida texnologik jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish imkonini beradi. Bunday tizimlar jarayon parametrlarini uzluksiz o‘lchaydi, olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi va boshqaruvchi ta’sirlarni avtomatik ravishda shakllantiradi. Natijada issiqlik almashinish qurilmalarining ishlash samaradorligi oshadi, energiya iste’moli kamayadi va texnologik jarayonlarning barqarorligi ta’minlanadi.Energiya tejashga erishishda adaptiv boshqaruv, optimal boshqaruv, prediktiv boshqaruv hamda intellektual boshqaruv algoritmlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Ushbu usullar texnologik obyektning joriy holatini va kelajakdagi o‘zgarishlarini hisobga olib, energiya sarfini minimal darajaga keltirishga imkon yaratadi. Shuningdek, issiqlik energiyasini qayta tiklash tizimlari, rekuperatorlar va regenerativ issiqlik almashinish qurilmalaridan foydalanish orqali energiya samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi natijasida issiqlik yo‘qotishlari kamayadi, texnologik parametrlarning aniqligi va barqarorligi oshadi,

ISSN 3030-3907

uskunalarning xizmat muddati uzayadi hamda ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi. Bundan tashqari, energiya resurslaridan oqilona foydalanish atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirib, ekologik barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatik boshqarish orqali energiya tejash usullarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mavjud boshqaruv algoritmlarining samaradorligini baholash hamda energiya iste’molini kamaytirishga qaratilgan takomillashtirilgan boshqaruv yechimlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimlarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot davomida issiqlik almashinish apparatlari va massa almashinish qurilmalarining konstruktiv tuzilishi, ishlash prinsiplari hamda ularning texnologik jarayonlardagi o‘rni chuqur o‘rganildi. Issiqlik va massa almashinish jarayonlari sanoat korxonalarida energiya sarfining asosiy qismini tashkil qilganligi sababli, ushbu qurilmalarning ish samaradorligini oshirish va energiya yo‘qotishlarini kamaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida avtomatik boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi.Jarayonlarni boshqarish va nazorat qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalaridan foydalanildi. Xususan, texnologik parametrlarni aniqlash va uzluksiz kuzatib borish uchun harorat, bosim, suyuqlik va gazlar sarfi hamda oqim tezligini nazorat qiluvchi yuqori aniqlikdagi sensorlardan foydalanildi. Sensorlardan olingan ma’lumotlar real vaqt rejimida qayta ishlanib, boshqaruv tizimiga uzatildi.

Tadqiqotda quyidagi usullar va texnologiyalar qo‘llanildi:

-harorat, bosim va oqim tezligini o‘lchovchi hamda nazorat qiluvchi zamonaviy sensorlar;

-texnologik parametrlarni qayta ishlovchi mikroprotsessorli boshqaruv modullari;

-PID-regulyator asosidagi avtomatik boshqaruv algoritmlari;

-SCADA tizimlari yordamida masofaviy monitoring va nazorat;

-energiya iste’molini baholash va optimallashtirish uchun matematik modellashtirish usullari;

-jarayon parametrlarini vizual kuzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy ta’minot vositalari.

Issiqlik almashinish jarayonlarida energiya sarfi quyidagi asosiy termodinamik bog‘lanish yordamida tahlil qilindi:

ISSN 3030-3907

$$Q=mc\Delta T$$

bu yerda:
Q - uzatilayotgan yoki qabul qilinayotgan issiqlik miqdori, J;
m - moddaning massasi, kg;
c - moddaning solishtirma issiqlik sig‘imi, J/(kg·°C);
ΔT - moddaning boshlang‘ich va oxirgi haroratlari orasidagi farq, °C.

Mazkur tenglama issiqlik almashinish jarayonida energiya sarfini aniqlash, issiqlik yo‘qotishlarini baholash hamda energiya tejamkor ish rejimlarini ishlab chiqishda asosiy nazariy asos sifatida xizmat qildi. Hisoblashlar natijasida haroratlar farqining optimallashtirilishi va issiqlik almashinish yuzalarining samarali ishlatilishi energiya iste’molini sezilarli darajada kamaytirishi aniqlandi.

Jarayonlarni avtomatik boshqarishda PID-regulyatorning matematik modeli qo‘llanildi:

$$u(t) = K_p e(t) + K_i \int e(t)dt + K_d \frac{de(t)}{dt}$$

bu yerda:
u(t) - boshqaruvchi signal;
e(t) - berilgan va haqiqiy qiymatlar orasidagi xatolik signali;
Kp - proporsional koeffitsient;
Ki - integral koeffitsient;
Kd - differensial koeffitsient.

Ushbu matematik model tizimning xatolik signalini uzluksiz tahlil qilish asosida optimal boshqaruv ta’sirini shakllantiradi. Proporsional qism tizimning joriy xatoligiga tezkor javob beradi, integral qism uzoq muddatli xatoliklarni bartaraf etadi, differensial qism esa parametrlarning o‘zgarish tezligini hisobga olib tizimning barqarorligini oshiradi. Natijada texnologik parametrlar belgilangan qiymatlar atrofida yuqori aniqlik bilan ushlab turiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish issiqlik-massa almashinish jarayonlarining barqarorligini oshirish, energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, uskunalarning ishlash muddatini uzaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish imkonini berishi aniqlandi. Shuningdek, real vaqt rejimida monitoring va boshqaruvni amalga oshirish orqali baxtsiz hodisalar holatlarining oldini olish hamda energiya resurslaridan yanada oqilona foydalanish mumkinligi isbotlandi.

TADQIQOTDAN OLINGAN NATIJALAR.

O‘tkazilgan tadqiqotlar va tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, issiqlik-massa almashinish jarayonlarida avtomatik boshqaruv tizimlarini qo‘llash texnologik jarayonlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Sensorlar,

ISSN 3030-3907

mikroprotsessorli boshqaruv qurilmalari, PID-regulyatorlar hamda SCADA tizimlari asosida tashkil etilgan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari energiya resurslaridan oqilona foydalanish, texnologik parametrlarning barqarorligini ta’minlash va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagi asosiy afzalliklarni ko‘rsatdi:

-Birinchidan, energiya sarfining kamayishi. Harorat, bosim va ishchi muhit sarfi kabi asosiy texnologik parametrlarni avtomatik nazorat qilish natijasida energiya iste’molining sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, optimal boshqaruv algoritmlaridan foydalanish orqali ortiqcha issiqlik sarfi o‘rtacha 15–25 % gacha qisqardi. Energiya resurslarining tejalishi korxonalarning ekspluatatsion xarajatlarini kamaytirib, ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, energiya iste’molining kamayishi uskunalarning ortiqcha yuklanishining oldini olib, ularning xizmat muddatini uzaytirishga yordam berdi.

-Ikkinchidan, jarayon barqarorligining oshishi.PID-regulyator asosidagi boshqaruv tizimlari texnologik parametrlarning belgilangan qiymatlar atrofida barqaror ushlab turilishini ta’minladi. Natijada harorat va bosimning keskin o‘zgarishlari kamaydi, texnologik jarayonlarning ishonchliligi oshdi hamda mahsulot sifatining barqarorligi ta’minlandi. Avtomatik boshqaruv tizimlari tashqi muhit yoki yuklama o‘zgarishlariga tezkor javob qaytarib, texnologik obyektning optimal ish rejimda faoliyat yuritishini ta’minladi.

-Uchinchidan, issiqlik yo‘qotishlarining kamayishi.Real vaqt rejimida monitoring va nazorat qilish imkoniyatlari issiqlik almashinish apparatlarining ish samaradorligini oshirdi. Sensorlardan olinadigan ma’lumotlar asosida tizim uzluksiz ravishda parametrlarni tahlil qilib bordi va kerakli boshqaruv ta’sirlarini amalga oshirdi. Natijada issiqlik energiyasining atrof-muhitga yo‘qotilishi kamaydi, issiqlik almashinish jarayonlarining foydali ish koeffitsiyenti oshdi hamda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi yaxshilandi.

-To‘rtinchidan, ishlab chiqarish unumdorligining oshishi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining joriy etilishi inson omiliga bog‘liq bo‘lgan xatolarni kamaytirdi va texnologik jarayonlarning uzluksiz ishlashini ta’minladi. Operatorlarning doimiy nazorat qilish zarurati qisqarib, boshqaruv jarayoni yanada aniq va tezkor amalga oshirildi. Natijada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi oshdi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko‘paydi va korxonaning umumiy samaradorligi yaxshilandi.

-Beshinchidan, ekologik samaradorlikning oshishi.Energiya sarfining kamayishi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham ijobiy natijalar berdi.

ISSN 3030-3907

Yoqilg‘i va energiya resurslarining kamroq sarflanishi atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NO_x) va boshqa zararli gazlar miqdorining kamayishiga olib keldi. Bu esa atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va korxonalarning ekologik standartlarga mos faoliyat yuritishiga xizmat qildi.

-Va oxirgisi, texnik va iqtisodiy samaradorlik.Tadqiqot natijalari avtomatik boshqaruv tizimlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar qisqa muddat ichida o‘zini oqlashini ko‘rsatdi. Energiya tejalishi, uskunalarning xizmat muddati uzayishi va ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, texnologik uskunalarning avariya holatlariga uchrash ehtimoli ham sezilarli darajada kamaydi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar avtomatik boshqaruv tizimlari joriy etilgan korxonalarda energiya samaradorligi sezilarli darajada oshishini, issiqlik yo‘qotishlari kamayishini va texnologik jarayonlarning ishonchliligi ortishini tasdiqladi. Olingan natijalar issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatlashtirish energiya tejashning samarali vositasi ekanligini hamda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatlashtirish zamonaviy sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish zarurati hamda ekologik talablarning kuchayishi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu sababli issiqlik va massa almashinish jarayonlarini zamonaviy boshqaruv vositalari yordamida nazorat qilish va optimallashtirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, avtomatik boshqaruv tizimlaridan foydalanish energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirish bilan bir qatorda texnologik jarayonlarning ishonchliligi, xavfsizligi va barqarorligini ham oshiradi. Sensorlar, mikroprotsessorli boshqaruv qurilmalari va zamonaviy monitoring tizimlari yordamida texnologik parametrlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nosozliklarni oldindan aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Jarayonlarni boshqarishda PID-regulyatorlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, PID-regulyatorlar tizimning xatolik signaliga tezkor javob qaytarishini ta’minlab, harorat, bosim va oqim sarfi kabi muhim parametrlarni belgilangan qiymatlar atrofida barqaror ushlab turishga imkon beradi. Natijada texnologik jarayonlarning sifat ko‘rsatkichlari

ISSN 3030-3907

yaxshilanadi, energiya yo‘qotishlari kamayadi va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, PID-regulyatorlarning nisbatan sodda tuzilishga ega bo‘lishi ularni amaliyotda keng qo‘llash imkonini yaratadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish (Machine Learning), katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash (Big Data) va Internet of Things (IoT) texnologiyalarining jadal rivojlanishi sanoat avtomatlashtirish tizimlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. IoT qurilmalari yordamida turli sensorlardan olingan ma’lumotlarni markazlashgan tarzda yig‘ish va tahlil qilish mumkin bo‘lsa, sun’iy intellekt algoritmlari ushbu ma’lumotlar asosida optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada kelajakda energiya iste’molini mustaqil ravishda optimallashtiruvchi, nosozliklarni oldindan prognoz qiluvchi va energiya resurslaridan maksimal samaradorlik bilan foydalanishni ta’minlovchi aqlli boshqaruv tizimlarini yaratish imkoniyati kengaymoqda.

Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini sanoat korxonalariga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri dastlabki investitsiya xarajatlarining nisbatan yuqoriligidir. Sensorlar, kontrollerlar, dasturiy ta’minot va aloqa vositalarini xarid qilish hamda o‘rnatish ma’lum miqdordagi moliyaviy mablag‘larni talab qiladi. Ayniqsa, eski texnologik uskunalarga ega korxonalarda modernizatsiya ishlari qo‘shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Yana bir muhim muammo – avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ishlashga qodir malakali mutaxassislar yetishmasligidir. Zamonaviy boshqaruv tizimlarini loyihalash, sozlash va ularga xizmat ko‘rsatish uchun avtomatika, dasturlash, axborot texnologiyalari va energetika sohalarida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar talab etiladi. Shu sababli kadrlar tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizimlarning uzluksiz va ishonchli ishlashini ta’minlash uchun muntazam texnik xizmat ko‘rsatish, dasturiy ta’minotni yangilash hamda o‘lchov vositalarini kalibrlash zarur. Ushbu tadbirlar qo‘shimcha xarajatlarni talab qilsa-da, tizimning uzoq muddatli samaradorligi va xavfsiz ishlashini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunga qaramasdan, tadqiqot natijalari avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligi dastlabki xarajatlarni to‘liq qoplashini ko‘rsatdi. Energiya iste’molining kamayishi, uskunalarning xizmat muddati uzayishi, ishlab chiqarish unumdorligining oshishi va avariya holatlarining kamayishi korxonaning umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Shu sababli issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatlashtirish

ISSN 3030-3907

sanoat korxonalarida energiya tejash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va raqobatbardoshlikni oshirishning samarali vositasi sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatik boshqarish energiya resurslaridan samarali foydalanish va energiya tejashning eng istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish texnologik jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, tahlil qilish va optimallashtirish imkonini berib, sanoat korxonalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, issiqlik-massa almashinish jarayonlarida avtomatik boshqaruv tizimlarini qo‘llash energiya sarfini kamaytirishga, issiqlik yo‘qotishlarini minimallashtirishga va energiya resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Jarayon parametrlarini doimiy monitoring qilish hamda PID-regulyatorlar yordamida boshqarish natijasida texnologik rejimlarning barqarorligi ta’minlanadi va energiya samaradorligi oshadi.Shuningdek, avtomatik boshqaruv tizimlari texnologik jarayonlarning aniqligini oshirishi, harorat, bosim va oqim tezligi kabi muhim parametrlarning belgilangan qiymatlar atrofida ushlab turilishini ta’minlashi aniqlandi. Bu esa mahsulot sifatining yaxshilanishiga, ishlab chiqarishdagi nosozliklarning kamayishiga hamda uskunalarning ishonchli ishlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar avtomatlashtirish texnologiyalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi muhim o‘rnini ham tasdiqladi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari operatorning bevosita aralashuvini kamaytirib, texnologik jarayonlarning uzluksiz va optimal rejimda ishlashini ta’minlaydi. Natijada ishlab chiqarish unumdorligi ortadi, ekspluatatsion xarajatlar kamayadi va korxonaning iqtisodiy samaradorligi oshadi.Bundan tashqari, energiya iste’molining kamayishi atrof-muhitga salbiy ta’sirning pasayishiga olib keladi. Yoqilg‘i va energiya resurslaridan samarali foydalanish natijasida atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid, azot oksidlari va boshqa zararli gazlar miqdori qisqaradi. Bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda sanoat korxonalarining ekologik xavfsizlik talablariga mos faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Kelgusida sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish algoritmlari, IoT (Internet of Things) texnologiyalari va aqlli sensor tizimlaridan keng foydalanish orqali energiya boshqaruvining yanada mukammal va samarali tizimlarini yaratish mumkin. Bunday tizimlar texnologik jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, energiya iste’molini prognozlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish va avariya holatlarini oldindan aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.Shunday qilib, issiqlik-massa almashinish jarayonlarini avtomatlashtirish energiya tejamkorligi, ishlab

ISSN 3030-3907

chiqarish samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim vositasi bo‘lib, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy ishlanmalar uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Luyben W.L. Process Modeling, Simulation and Control for Chemical Engineers. McGraw-Hill Education, 2013.
2. Doran P.M. Bioprocess Engineering Principles. 2nd Edition. Academic Press, 2013.
3. Кафаров В.В. Методы кибернетики в химии и химической технологии. – Москва: Химия, 2016. – 496 с.
4. Stephanopoulos G. *Chemical Process Control*. Pearson Education, 2016.
5. Dorf R.C., Bishop R.H. Modern Control Systems. 13th Edition. Pearson Education, 2016.
6. Shinskey F.G. Process Control Systems: Application, Design, and Tuning. McGraw-Hill, 2016.
7. Ogata K. *Modern Control Engineering*. Prentice Hall, 2017.
8. Incropera F.P., DeWitt D.P., Bergman T.L., Lavine A.S. Fundamentals of Heat and Mass Transfer. 8th Edition. John Wiley & Sons, 2017.
9. Seborg D.E., Edgar T.F., Mellichamp D.A., Doyle F.J. Process Dynamics and Control. 4th Edition. John Wiley & Sons, 2017.
10. Рамазанов М.М., Абдуллаев Ш.А. Иссиқлик техникаси ва иссиқлик алмашиниш асослари. – Тошкент: «Фан», 2017. – 312 б.
11. Балакирев В.С., Цирлин А.М. Оптимальное управление технологическими процессами. – Москва: Энергоатомиздат, 2017. – 384 с.
12. Юсупбеков Н.Р., Игамбердиев Х.З., Маматов А.М. Технологик жараёнларни автоматик бошқариш назарияси. – Тошкент: ТДТУ нашриёти, 2018. – 356 б.
13. Бесков В.С. Общая химическая технология и основы промышленной экологии. – Москва: Академкнига, 2018. – 452 с.
14. Юлдашев З.У., Халиков А.А. Автоматизация технологических процессов и производств. – Ташкент: «Ўзбекистон», 2019. – 320 с.
15. Игамбердиев Х.З., Юсупбеков Н.Р. Автоматик бошқариш тизимлари. – Тошкент: «Voris-Nashriyot», 2020. – 294 б.
16. Наливкин Д.А. Автоматизация производственных процессов. – Санкт-Петербург: Лань, 2020. – 336 с.
17. Kaynak O., Ozturk S., Alci M. Industrial Automation and Process Control. Springer, 2020

ISSN 3030-3907

18. Арипов Н.М., Тожибоев Г.Т. Саноат корхоналарини автоматлаштириш асослари. – Тошкент: «Фан ва технология», 2021. – 285 б.
19. Kreith F., Manglik R.M., Bohn M.S. Principles of Heat Transfer. 8th Edition. Cengage Learning, 2021.
20. Абдуллаев А.А., Рахимов Б.Б. Энергия тежамкор технологиялар ва уларнинг саноатда қўлланилиши. – Тошкент: «Фан ва технология», 2022. – 248 б.

ISSN 3030-3907

IT-KASBLARNI 3D-SAHNALARDA VIZUALIZATSIYA QILISH ORQALI FONLI O‘QITISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Urinbaeva Azada Baxadirovna
Qo‘qon davlat universiteti, tayanch doktorant
E-mail: urinbaevaazada@gmail.com

Annotatsiya. Maqola IT-sohasi kasblarini 3D-muhitda vizualizatsiya qilish orqali fonli o‘qitish (ambient learning) metodikasining nazariy-metodologik jihatlari va xalqaro tajribasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda fazoviy bilimlarni taqdim etish vositalari, virtual pedagogik agentlar va fonli ta’lim konsepsiyalari kesishmasidagi ilmiy adabiyotlar tizimlashtirilgan. AQSh, Yevropa va Osiyo loyihalari tahlili o‘quv muhitlarida aynan IT-mutaxassisliklar spektrini fonli tamoyillar asosida vizualizatsiya qiluvchi platformalarning yetishmasligini ko‘rsatdi. Mazkur ilmiy bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida tadqiqotda original dasturiy tizimning konseptual modeli va uning yangiligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fonli o‘qitish (ambient learning), 3D-vizualizatsiya, pedagogik agentlar, immersiv ta’lim, metaverse loyihalari.

Аннотация. Статья посвящена изучению теоретико-методологических аспектов и международного опыта реализации методики фонового обучения (ambient learning) на основе 3D-визуализации профессий в IT-сфере. В работе систематизирована научная литература на стыке инструментов пространственного представления знаний, виртуальных педагогических агентов и концепций фонового образования. Анализ проектов США, Европы и Азии выявил дефицит учебных платформ, визуализирующих спектр IT-специальностей на принципах фонового обучения. Для устранения данного научного пробела в исследовании обоснованы концептуальная модель оригинальной программной системы и её новизна.

Ключевые слова: фоновое обучение (ambient learning), 3D-визуализация, педагогические агенты, иммерсивное обучение, метаверс-проекты.

Abstract. This paper examines the theoretical and methodological dimensions along with global practices of ambient learning powered by the 3D visualization of IT professions. It provides a systematic review of scientific literature at the intersection of spatial knowledge representation tools, virtual pedagogical agents, and ambient education concepts. An analysis of initiatives across the USA, Europe, and Asia reveals a distinct research gap: a shortage of educational platforms designed to visualize the spectrum of IT specialties based on ambient learning principles. To address this limitation, the study outlines and substantiates the conceptual model and scientific novelty of a proprietary software system.

ISSN 3030-3907

Keywords: ambient learning, 3D visualization, pedagogical agents, immersive education, metaverse projects.

KIRISH.

So‘nggi yillarda IT-industriyasidagi transformatsiyalar kasblar sonini oshirish bilan birga, ularning funksional tuzilishini ham murakkablashtirdi. K. Schwab [1] ta’kidlaganidek, To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida raqamli texnologiyalar malaka talablarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bunday dinamik muhitda IT-kasblar haqida tizimli va vizual tasavvurga ega bo‘lish o‘smirlar, talabalar hamda o‘z karyerasini o‘zgartirayotgan kattalar uchun fundamental ehtiyojdir. Biroq, an’anaviy kasbga yo‘naltirish metodlari (standart testlar, matnli tavsiflar, passiv ma’ruzalar yoki 2D taqdimotlar) IT-sohasining real arxitekturasini to‘liq ko‘rsatib bera olmayapti. Shu sababli, zamonaviy pedagogika va kognitiv psixologiyada ikkita konseptual tendensiya oldinga chiqmoqda:

1. Murakkab va mavhum bilimlarni vizuallashtirishda uch o‘lchovli (3D) fazolardan, virtual muzeylar va immersive muhitlardan foydalanish [2, 3].

2. Fonli o‘qitish (ambient learning) tamoyillarining qadrlanishi. Bu yondashuvga ko‘ra, inson oldindan maqsad qo‘ymagan holda ham, to‘g‘ri loyihalashtirilgan axborot muhitida bo‘lishi jarayonida yangi bilimlarni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi [4, 5].

Maqolaning maqsadi — IT-kasblarni 3D-sahnalarda vizualizatsiya qilish orqali fonli o‘qitish tizimini joriy etishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish va xorijiy tajribani tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Axborotni fazoviy tashkil etish uning o‘zlashtirilishiga bevosita ta’sir qiladi. S.M. Smith [10] xotira natijalarining muhit kontekstiga bog‘liqligini (context-dependent learning) isbotlagan. R.E. Mayer [3] esa multimedia orqali o‘qitish nazariyasida so‘z, ovoz va tasvirning bir vaqtda (3D formatda) ishlatilishi materialni eslab qolish samaradorligini keskin oshirishini ko‘rsatdi.

J. Sweller [11] kognitiv yuklama nazariyasida (Cognitive Load Theory) insonning ishchi xotirasi cheklanganligini isbotladi. Van Merrienboer va Sweller [12] keraksiz yuklamani (extraneous load) kamaytirish foydali yuklamaga yo‘l ochishini ta’kidlaydi. Demak, loyihalanayotgan 3D-sahnalar ortiqcha o‘yin elementlaridan xoli bo‘lib, faqat kasbiy kontekstga xizmat qilishi lozim. S.A. Sorby [13] esa fazoviy tasavurning maqsadli rivojlantiriluvchi mahorat ekanligini isbotlab, 3D-muhitlar keng auditoriya uchun mos kelishini dalilladi.

Virtual personajlarning ta’limiy muhitda qo‘llanilishi ilmiy adabiyotda «pedagogik agentlar» (pedagogical agents) deb ataladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, virtual ekspertning muhitda mavjudligi ijtimoiy ishtirok (social

ISSN 3030-3907

presence) effektini kuchaytiradi [14]. Kasbga yo‘naltirishda «xonadagi ekspert» (expert-in-the-room) konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu yerda personaj faol muloqot qiluvchi ma’lumot manbai emas, balki foydalanuvchi o‘zini uning o‘rnida tasavvur qilishi uchun professional identifikatsiya langari vazifasini bajaradi.

Fonli o‘qitish — boshqa asosiy faoliyatning yon ta’siri sifatida sodir bo‘ladigan jarayondir [4]. G. Konetes [4] ta’kidlaganidek, fonli o‘qitish maqsadli rejalashtirilmasa-da, uning uchun qulay muhitni ataylab yaratish mumkin.

Neyrobiologik tadqiqotlar muhitning statistik qonuniyatlarini o‘rganish ong ostida, subyektning aniq niyatisiz sodir bo‘lishini va bu usul to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishdan kam samarali emasligini ko‘rsatdi [5]. Boechler va hammualliflari [14] esa axborotning fazoviy joylashuvi ko‘zda tutilmagan holda (incidental) o‘zlashtirilgan material hajmini oshirishini aniqlagan.

XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.

Dunyoda 3D va VR muhitlardan kasbga yo‘naltirishda foydalanish bo‘yicha sezilarli tajriba to‘plangan:

• AQSh va Kanada: MIT (Virtual Education Space) va British Columbia universiteti (3D Career Exploration) loyihalarida talabalar texnik tizimlar va kasb muhitlarida virtual sayohat qiladilar [6]. Biroq, bu tizimlar universal xarakterga ega va IT-sohasiga ixtisoslashmagan.

• Yevropa: Finlandiyaning 3D Education Hub [7] va Germaniyaning Virtual Career Lab loyihalarida VR orqali kasblar bilan tanishish imkoniyati yaratilgan. EON Reality kompaniyasining EON Sentient (2026) mahsuloti esa immersiv mashg‘ulotga (immersive training) yo‘naltirilgan bo‘lib, fonli o‘qitishga emas, faqat foydalanuvchining faol ishtirokiga tayanadi [8].

• Osiyo: Yaponiyaning Virtual Career Museum [9] va Janubiy Koreyaning (SNU) 3D Career Guidance System loyihalarida interaktiv muloqot asosiy o‘ringa chiqqan. Foydalanuvchi faqat o‘zi tanlagan kasbni o‘rganadi, qo‘shni kasblar esa diqqat markazidan chetda qoladi.

• MDH: Rossiyaning Skillbox va Qozog‘istonning Nazarboyev Virtual Career Center loyihalari asosan tijoriy va amaliy xarakterga ega bo‘lib, fonli o‘qitishning ilmiy-metodologik asoslariga ega emas.

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

TADQIQOTNING NAZARIY-KONSEPTUAL MODELI.

Mavjud nazariyalar va xalqaro tajriba asosida IT-kasblarni 3D-sahnalarda vizualizatsiya qilish orqali fonli o‘qitish tizimining mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi.

Modelning asosi sifatida quyidagi to‘rtta fundamental tamoyil belgilandi:

ISSN 3030-3907

1. Kognitiv yuklamani optimallashtirish: 3D-sahnalarda chalg‘ituvchi o‘yin mexanikalari bo‘lmaydi, har bir vizual ob’ekt ma’noviy yuk ko‘taradi (J. Sweller).

2. Fazoviy kontekstualizatsiya: Terminlar va professional atributlar 3D-sahnaning ma’lum bir funksional zonasi bilan bog‘lanadi (S.M. Smith).

3. Ambient (muhitli) ekspert mavjudligi: Virtual personaj dialogga kirmaydi, u professional identifikatsiya langari rolini o‘taydi.

4. Fonli axborot ortiqchaligi: Idrok maydonida asosiy kasb bilan birga qo‘shni mutaxassisliklar elementlari ham doimiy ko‘rinib turadi (G. Konetes).

Mantiqiy zanjir quyidagi sxema asosida ishlaydi:

[3D virtual muhit (xonalar)] → [Foydalanuvchi navigatsiyasi] → [Virtual ekspert (kontekst) → [Qo‘shni kasbiy bilimlar shakllanishi] ← [Fonli o‘qitish mexanizmi]

Amaliy misol: Foydalanuvchi «Frontend Developer» xonasida navigatsiya qilganda, ushbu kasbga oid bilimlarni maqsadli o‘zlashtiradi. Shu bilan bir vaqtda, uning ko‘rish maydonida qo‘shni xonalardagi (Backend, UX/UI, QA) terminlar va vizual modellar fonli tarzda (incidental learning) aks etib turadi. Bu foydalanuvchida IT-sohasining umumiy ekotizimi haqida yaxlit tasavvur uyg‘otadi.

ILMIY YANGILIK VA XULOSA.

Kompetensiyalarni baholashning murakkabligi shundaki, ularni an’anaviy testlar yoki imtihonlar orqali to‘liq aniqlab bo‘lmaydi. Kompetensiya – bu nafaqat bilim, balki uni nostandart vaziyatlarda qo‘llash, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyati ustidan refleksiya qilish kabi murakkab kompleks ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Aynan shu sababli kompetensiyalarni baholash uchun yangi metodologik yondashuv zarur.

Sun’iy intellekt texnologiyalari kompetensiyalarni baholashga yangi imkoniyatlar olib keldi: katta hajmli ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, talabaning xatti-harakat patternlarini kuzatish, longitudinal trayektoriyalarni shakllantirish. Mazkur tadqiqotning maqsadi – kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan AI-asoslangan e-assessment metodologiyasini ishlab chiqish va uni empirik tarzda asoslashdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tushunchalari (bilim, ko‘nikma, qobiliyat, kompetensiya, kompetentlik) ko‘pincha ilmiy adabiyotlarda chalkash tarzda ishlatiladi. Tadqiqot doirasida biz bu tushunchalar o‘rtasidagi ierarxik bog‘liqlikni piramida shaklida taqdim etamiz (1-rasm).

ISSN 3030-3907




1-rasm. Kompetensiyalarning ierarxik piramidasi

Piramidaning eng pastki darajasida bilim – faktlar, ta’riflar, qoidalar majmui joylashadi. Ikkinchi darajada ko‘nikma – bilimni amaliy holda qo‘llash usullari paydo bo‘ladi. Uchinchi darajada qobiliyat – ma’lum vazifani bajarish quvvati shakllanadi. To‘rtinchi darajada bu uchta komponent integratsiyalashib kompetensiya hosil qiladi. Beshinchi darajada – kompetentlik bo‘lib, bu kompetensiyalarning real natijalar ko‘rsatishida namoyon bo‘lishi. Eng yuqori daraja – meta-kompetensiya, bu yangi vaziyatlarga moslashish, o‘z-o‘zini boshqarish va doimiy o‘rganish qobiliyatidir.

Bu ierarxiya baholashning asosiy printsipini belgilaydi: har bir daraja uchun o‘z baholash usullari kerak. An’anaviy testlar faqat birinchi darajani ya’ni, bilimni yaxshi baholay oladi. Yuqori darajalar uchun yanada murakkab vositalar talab qilinadi.

Tadqiqot davomida ettita asosiy soft skills kompetensiyalari va oltita baholash usuli o‘rtasidagi muvofiqlik matritsasi shakllantirildi (2-rasm). Matritsa har bir kompetensiya uchun qaysi baholash usuli eng samarali ekanligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Kompetensiyalarni baholash usullarining muvofiqlik matritsasi

Matritsadan ko‘rinib turibdiki, hech bir alohida usul barcha kompetensiyalar uchun universal emas. MCQ testlar tahliliy va IT-savodxonlik kompetensiyalari uchun eng samarali (4-balli muvofiqlik), lekin hamkorlik va avtonomiya kabi soft skills uchun deyarli yaroqsiz (1-balli). Aksincha, loyiha asosidagi baholash deyarli barcha kompetensiyalar uchun yuqori muvofiqlikka ega (4-5 ball), shuning uchun u kompetensiyaviy baholashning asosiy usullaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

Kompetensiyalarni AI yordamida baholash uchun ko‘p qatlamli texnologik arxitektura ishlab chiqildi. Birinchi qatlam – ma’lumotlar to‘plash: talabaning loyiha bajarayotganidagi xatti-harakatlari, hamkorlik nutqlari, refleksiv yozuvlar, peer-feedback. Ikkinchi qatlam – NLP va ML algoritmlari yordamida bu ma’lumotlarni tahlil qilish: matn tonini aniqlash, hamkorlik patternlarini topish, refleksiya chuqurligini o‘lchash. Uchinchi qatlam – kompetensiyalar profilini shakllantirish va vizualizatsiya qilish.

Texnologiyaning eng muhim xususiyati – uzluksiz baholash. An’anaviy semestr oxiridagi imtihondan farqli o‘laroq, AI-tizim talabaning faoliyatini doimiy kuzatadi va kompetensiyalar profilini real vaqtda yangilab boradi. Bu jihat formativ baholash falsafasiga to‘liq mos keladi va talabalarga o‘z rivojlanishlari haqida tezkor fikr-mulohazalar olish imkonini beradi.


Har bir talaba uchun individual kompetensiyalar profili shakllantiriladi. Profil quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: har bir kompetensiya bo‘yicha hozirgi daraja (1-5 ball), bu darajaga erishish uchun olingan dalillar (evidens), kuchli va zaif tomonlar tahlili, keyingi rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar. Profil dinamik bo‘lib, semestrlar mobaynida o‘zgarib boradi.

Kompetensiyaviy baholashning innovatsion vositasi – mikro-tasdiqnomalar. Talaba ma’lum kompetensiyani bitiruv darajasiga yetkazganda, blockchain-asoslangan ishonchli sertifikat oladi. Bu sertifikat ish beruvchilar tomonidan doimo

ISSN 3030-3907

tekshirilishi mumkin va talabaning amaliy tayyorgarligini tasdiqlovchi obyektiv hujjat sifatida xizmat qiladi.

AI-asoslangan kompetensiyaviy baholash tizimining samaradorligini tekshirish uchun 180 ta talabaning to‘rt yillik (8 semestr) longitudinal kuzatuvi olib borildi. Talabalar to‘rtta asosiy kompetensiyalari – tahliliy, kommunikatsion, hamkorlik va muammo yechish – bo‘yicha har semestr baholandi (3-rasm).



3-rasm. Talabalar kompetensiyalari rivojlanishining longitudinal kuzatuvi

Grafikadan ko‘rinib turibdiki, barcha kompetensiyalar bo‘yicha doimiy o‘sish kuzatildi. Eng tezkor o‘sish muammo yechish kompetensiyasida (1.9 dan 4.8 gacha, +2.9 ball), eng sekin esa hamkorlik kompetensiyasida (1.8 dan 4.4 gacha, +2.6 ball) qayd etildi. Bitiruv darajasiga (4.0 ball va undan yuqori) talabalarning aksariyati 6-7 semestrda erishishdi. Bu natijalar oliy ta’lim dasturining kompetensiyaviy maqsadlarni amalda erishish jadvali bilan mos keladi.

1-jadval.

AI-asoslangan va an’anaviy kompetensiyalar baholashining qiyoslamasi

Mezon	An’anaviy baholash	AI-asoslangan kompetensiyaviy	Farq
Kompetensiya turlarini qamrash (%)	35	85	+50
Longitudinal kuzatuv mavjudligi	Yo‘q	Ha (real-time)	–
Refleksiya chuqurligi (5 ball)	1.8	4.2	+2.4
Soft skills baholash (1-5)	1.5	4.0	+2.5

ISSN 3030-3907

Real ish o‘rnida tayyorgarlik (1-5)	2.8	4.3	+1.5
Talaba motivatsiyasi (1-5)	2.9	4.1	+1.2
Ish beruvchi qoniqishi (1-5)	3.1	4.4	+1.3

Kompetensiyaviy baholashning katta afzalligi – ish beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiya imkoniyati. Tadqiqot davomida 25 ta ish beruvchi kompaniya bilan ishlangan: ular o‘z talablari (kompetensiyalar profili) AI tizimiga kiritildi va talabalarning real kompetensiyalari bilan avtomatik mosligi hisoblandi. Bu yondashuv "matching" deb nomlanib, ish beruvchilar uchun kerakli mutaxassisni topishni, talabalar uchun esa o‘z kuchlariga mos ish o‘rnini izlashni sezilarli soddalashtirdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AI-tomonidan tavsiya etilgan talabalarning 78 foizi ish beruvchilar tomonidan intervyuga taklif etildi (an’anaviy diplom asosidagi tanlovda – 32%). Bu raqam kompetensiyaviy baholashning amaliy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan AI baholashni joriy etishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelindi. Birinchidan, professor-o‘qituvchilarning aksariyati ko‘p yillar davomida bilim-asoslangan paradigmada ishlagan va kompetensiyaviy yondashuvga psixologik tayyor emasligi. Bu muammoni hal qilish uchun maxsus ikki haftalik intensiv kurslar tashkil etildi. Ikkinchidan, kompetensiyalarni o‘lchash uchun zarur bo‘lgan ko‘p hajmli ma’lumotlarni to‘plash texnik infratuzilmaga jiddiy talablar qo‘yadi. Uchinchidan, talabalarning shaxsiy ma’lumotlari bilan ishlash etik va huquqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

Bu qiyinchiliklarning hammasi tashkiliy va metodologik chora-tadbirlar orqali bartaraf etilishi mumkin. Eng muhimi – bosqichli yondashuv: birinchi yili 2-3 ta kompetensiya, keyingi yili kengaytirish.

Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan e-assessment metodologiyasining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida samarali joriy etilishi mumkinligini tasdiqladi. Olingan empirik ma’lumotlar kompetensiyalarni baholashda ierarxik piramida modelidan foydalanish, turli baholash usullarini integratsiyalash, sun’iy intellekt asosidagi baholash texnologiyalarini qo‘llash hamda kompetensiyalar rivojlanishini uzoq muddatli monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Shuningdek, ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etilgan baholash jarayoni talabalarning kasbiy tayyorgarligi va mehnat bozori talablariga mosligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Natijada kompetensiyaviy e-assessment nafaqat ta’lim natijalarini aniqroq baholash, balki

ISSN 3030-3907

talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashning muhim vositasi ekanligi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.I. Abdumannopov. TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA E-ASSESSMENT VOSITASIDAN FOYDALANISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY. 3 (29), 33-35.
2. Rakhimova, S., Toshmurodov, M., Rahmanova, M., Kodirova, N., Jamolova, S., Turayeva, M., & Abdumannopov, M. (2026). A Hybrid Neuro-Fuzzy Adaptive Model for Real-Time Personalized Learning Path Optimization in E-Learning Systems. Journal of Internet Services and Information Security (JISIS), 16(1), 811-827.
3. ABDUMANNOPOV, M. I. O. G. L., & MIRZAAXMEDOV, M. K. BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING AKT BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 40-43.
4. Raxmonov O., Foziljonova M., Abdumannopov M. BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHISINING SHAXSIY KOMPETENTLIK OSHIRISH MODELI. // Ta'lim fidoyilari, March 2022. p. 18-26.
5. Abdumannopov M. BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA E-ASSESSMENT TIZIMLARINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(44), 225-228.
6. Salimov A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarni baholash // Pedagogika va psixologiya muammolari. – 2024. – № 1. 12-24.
7. Sturgis C., Casey K. Designing for Equity: Leveraging Competency-Based Education to Ensure All Students Succeed. – iNACOL, 2018. – 60 p.

ISSN 3030-3907

IT-KASBLARGA YO‘NALTIRISHDA TESTOLOGIK METOD VA 3D MUHITLI O‘QITISH PLATFORMASINING QIYOSIY TAHLILI

Urinbaeva Azada Baxadirovna
Qo‘qon davlat universiteti, tayanch doktorant
E-mail: urinbaevaazada@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni AKT sohasiga yo‘naltirishda ikki yondashuv — an’anaviy testlar va zamonaviy 3D ta’lim platformalari qiyosiy tahlil qilingan. Ikkala metod kasbni tushunish chuqurligi, bilim shakllanishi, kognitiv yuklama, motivatsiya va individual xususiyatlarni aniqlash kabi 5 ta mezon bo‘yicha baholandi. Testlarning psixotipni aniqlashdagi foydasi qayd etilsa-da, ularning IT-kasblar dinamikasini ko‘rsatishdagi cheklovlari ochib berildi. 3D tizimlarning texnik va resurs talablariga qaramay, ularning immersiv (ochib beruvchi) samaradorligi asoslandi. Yakunda jarayonni optimallashtirish uchun gibrid model taklif etildi.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, IT-kasblar, testologik metod, 3D muhit, kognitiv yuklama, immersiv tizimlar, gibrid model.

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ двух подходов к профессиональной ориентации молодежи в сфере ИКТ: традиционного тестирования и современных образовательных платформ на основе 3D-среды. Оба подхода были оценены по пяти критериям: глубина восприятия профессии, формирование знаний, когнитивная нагрузка, мотивация и способность выявлять индивидуальные особенности. Несмотря на признанные преимущества традиционных тестов в определении психотипов, отмечены их ограничения в отражении динамичного характера ИТ-профессий. В то же время доказана высокая эффективность 3D-систем благодаря их иммерсивному характеру, несмотря на технические и ресурсные затраты. В заключение предложена гибридная модель, направленная на оптимизацию процесса профессиональной ориентации.

Ключевые слова: профессиональная ориентация, ИТ-профессии, метод тестирования, 3D-среда, когнитивная нагрузка, иммерсивные системы, гибридная модель.

Abstract. The article provides a comparative analysis of two approaches to career guidance for youth in the ICT field: traditional testing and modern 3D educational platforms. Both methods were evaluated based on five criteria: depth of career perception, knowledge formation, cognitive load, motivation, and the ability to identify individual traits. While the benefits of traditional tests in determining psychotypes are acknowledged, their limitations in capturing the dynamic nature of IT professions are highlighted. Despite the technical and resource demands of

ISSN 3030-3907

3D systems, their immersive effectiveness is proven. Finally, a hybrid model is proposed to optimize the career guidance process.

Keywords: career guidance, IT professions, testing method, 3D environment, cognitive load, immersive systems, hybrid model.

KIRISH.

Axborot texnologiyalari sohasining jadal transformatsiyasi va mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlar kasbga yo‘naltirish tizimi oldiga yangi metodologik vazifalarni qo‘ymoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida zamonaviy mutaxassis nafaqat tor doiradagi texnik ko‘nikmalarga (hard skills), balki keng professional dunyoqarash va moslashuvchanlikka ega bo‘lishi talab etiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kasblar nomenklaturasining tez-tez yangilanib turishi yoshlarda professional identifikatsiya jarayonini murakkablashtirmoqda. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy diagnostika va proforiyentatsiya metodologiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Hozirgi pedagogik va psixologik amaliyotda asosan an’anaviy testologik yondashuv ustunlik qilib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishning fundamental nazariy asoslari J.L. Holland [1], M.L. Savickas [2], R.W. Lent [3] va D.E. Super [4] tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metod standartlashtirilganligi, ommaviyligi va iqtisodiy jihatdan tejamkorligi tufayli uzoq vaqt davomida proforiyentatsiyaning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qildi. Shaxsning individual xususiyatlarini aniqlashda u yuqori validlik darajasiga ega. Biroq zamonaviy IT-kasblarning aksariyati mavhum xarakterga ega bo‘lganligi bois, an’anaviy testlarning prognostik imkoniyatlari amaliyotda yetarli samara bermayapti. Shu sababli so‘nggi yillarda immersiv 3D muhitlarni ta’lim va kasbga yo‘naltirish jarayoniga integratsiya qilish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda.

Tadqiqotning maqsadi — AKT sohasidagi mutaxassisliklarga yo‘naltirish jarayonida an’anaviy testologik metodlar bilan zamonaviy 3D virtual muhitli platformalarning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini qiyosiy baholashdan iborat.

ASOSIY QISM.

An’anaviy testologik metodologiyada respondent kasb haqidagi birlamchi axborotni asosan matnli tavsiflar, ya’ni professiogrammalar shaklida qabul qiladi [1, 4]. Bunday ma’lumotlar subyektda bo‘lajak kasbiy muhit to‘g‘risida yuzaki tasavvurlarni shakllantiradi [3]. Foydalanuvchi real mehnat jarayonining ichki dinamikasini va murakkab jihatlarini bevosita his qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Masalan, statik test savollari shaxsning chizmachilik yoki vizual dizaynga bo‘lgan umumiy qiziqishini aniqlashi mumkin, biroq real vaqtdagi murakkab

ISSN 3030-3907

UI/UX tizimlari yoki 3D modellashtirish muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettira olmaydi.

3D platformada esa har bir AKT kasbi alohida virtual xona ko‘rinishida tasvirlanadi. R.E. Mayerning multimedia ta’limi tamoyillariga ko‘ra, verbal va vizual axborotning parallel tarzda taqdim etilishi matnli ma’lumotlarga nisbatan samaraliroq o‘zlashtiriladi [6, 7]. 3D vizualizatsiya foydalanuvchiga virtual ob’ektlar bilan ishlash va kasbiy operatsiyalarni amaliy sinab ko‘rish imkonini beradi. Natijada mavhum qiziqish aniq kasbiy motivatsiyaga aylanadi hamda kasb tanlashdagi xatoliklar kamayadi.

An’anaviy metodlarda baholash natijasiga ko‘ra foydalanuvchiga odatda uning psixotipiga mos 1–3 ta kasbiy yo‘nalish tavsiya etiladi [1, 2]. Biroq ushbu metod turdosh ixtisosliklar va ularning o‘zaro bog‘liqligi haqida yaxlit tasavvur bermaydi.

3D muhitning muhim pedagogik afzalliklaridan biri yashirin ta’lim (incidental learning) effektidir. G. Konetes tadqiqotlariga ko‘ra, to‘g‘ri tashkil etilgan virtual muhitda foydalanuvchi qo‘shimcha kuch sarflamasdan ham yangi bilimlarni o‘zlashtirishi mumkin [9]. A.R. Seitz tashqi muhitning fazoviy qonuniyatlarini o‘rganish ko‘pincha implitsit tarzda yuz berishini ta’kidlaydi [10]. Foydalanuvchi virtual makonda harakatlanar ekan, Fullstack, Frontend va Backend kabi yo‘nalishlarning o‘zaro aloqadorligini tabiiy ravishda anglab boradi.

J. Swellerning kognitiv yuklama nazariyasiga muvofiq, an’anaviy testlar bilan ishlash jarayonida foydalanuvchi matnli axborotni mantiqiy tahlil qiladi, bu esa ishchi xotirada yuqori ichki kognitiv yuklamani yuzaga keltiradi [5, 8]. Shu bilan birga, test metodikasi tashkiliy va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lib, uni joriy etish katta texnik resurslarni talab qilmaydi.

3D muhitni yaratish esa yuqori mehnat, dasturiy va texnik xarajatlarni talab qiladi. Bundan tashqari, virtual makondagi navigatsiya dastlab foydalanuvchida qo‘shimcha kognitiv yuklama hosil qilishi mumkin. Biroq S.A. Sorby fazoviy ko‘nikmalarni rivojlantirish kontekstga bog‘liq xotira effektini kuchaytirishini qayd etadi [11]. S.M. Smithning tadqiqotlari ham ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tiklash samaradorligi vizual kontekst bilan bog‘liq holda ortishini ko‘rsatadi [12].

Testologik metod respondentda baholash jarayonida ma’lum darajada nazorat ostida ekanligi hissini uyg‘otadi. Bu ayrim hollarda xavotirlikni oshirib, natijalarning ijtimoiy ma’qullanish omili ta’sirida o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, Hollandning RIASEC modeli kabi tizimlar shaxsning fundamental psixologik xususiyatlarini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi [1].

ISSN 3030-3907

3D platformalarda esa foydalanuvchi faoliyatining markazida erkin harakatlanish va geymifikatsiya elementlari turadi. C.L. Dym virtual muhitda professional faoliyat elementlarining aks ettirilishi yoshlarning kasbiy o‘zligini shakllantirish jarayonini tezlashtirishini ta’kidlaydi [13]. Bunday muhitda shaxsning qiziqishlari va xulq-atvori uning harakatlari, faolligi va tanlovlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli platforma test natijalarini amaliy muhitda tekshirish uchun samarali vosita sifatida qaralishi mumkin.

QIYOSIY TAHLIL NATIJALARI.

Olib borilgan tahlillar asosida an’anaviy testologik metod va 3D muhitli platformaning afzallik hamda cheklovlari umumlashtirildi.

Kasbiy muhitni idrok etish bo‘yicha 3D platforma ustunlikka ega, chunki u vizual va amaliy interaktivlikni ta’minlaydi. Turdosh kasblarni o‘rganishda ham 3D muhit yaxlit tasavvur shakllantiradi. Kognitiv yuklama nuqtai nazaridan har ikki yondashuvning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud. Resurs tejamkorligi bo‘yicha testologik metod ustun hisoblanadi. Psixodiagnostik validlik nuqtai nazaridan esa an’anaviy testlar yuqori aniqlikka ega.



XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR.

Tadqiqot natijalari J. Swellerning kognitiv yuklama nazariyasi hamda R.E. Mayerning multimedia ta’limi prinsiplarini IT-sohasidagi kasbga yo‘naltirish jarayonida samarali qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy testologik metod va 3D virtual muhit bir-birini inkor etuvchi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi yondashuvlar hisoblanadi. Shu sababli ularning imkoniyatlarini birlashtiruvchi gibrid model eng maqbul yechim sifatida qaraladi.

Birinchi bosqichda an’anaviy testologik metodlar yordamida shaxsning qiziqishlari, moyilliklari va RIASEC profili aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda esa foydalanuvchi mos yo‘nalishdagi 3D virtual muhitga yo‘naltirilib, o‘z kasbiy tanlovini amaliy kontekstda sinovdan o‘tkazadi. Bunday yondashuv kasbiy identifikatsiyani mustahkamlash va noto‘g‘ri tanlov ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar sifatida kasbga yo‘naltirish markazlarida an’anaviy diagnostika vositalarini 3D geymifikatsiyalashgan platformalar bilan

ISSN 3030-3907

integratsiyalash, shuningdek, virtual muhitlarni yaratishda WebGL va Three.js kabi ochiq manbali texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Holland, J.L. (1997). Making Vocational Choices. PAR.
2. Savickas, M.L. (2005). The theory and practice of career construction. In Career Development and Counseling. Wiley.
3. Lent, R.W., et al. (1994). Toward a unifying social cognitive theory of career. Journal of Vocational Behavior, 45(1).
4. Super, D.E. (1990). A life-span approach to career development. In Career Choice and Development.
5. Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving. Cognitive Science, 12(2).
6. Mayer, R.E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
7. Clark, R.C., Mayer, R.E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction. Wiley.
8. Van Merrienboer, J.J.G., Sweller, J. (2005). Cognitive load theory and complex learning. Educational Psychology Review, 17(2).
9. Konetes, G. (2010). The function of incidental learning in educational environments. Doctoral dissertation.
10. Seitz, A.R., et al. (2025). Mechanisms of incidental learning in visual dimensions. Current Opinion in Neurobiology, 90.
11. Sorby, S.A. (2009). Educational research in developing 3-D spatial skills. International Journal of Science Education, 31(3).
12. Smith, S.M. (1979). Remembering in and out of context. Journal of Experimental Psychology, 5(5).
13. Dym, C.L., et al. (2005). Engineering design thinking, teaching, and learning. Journal of Engineering Education, 94(1).
14. Qodirova, N.M. (2022). IT-kasblarga yo‘naltirishning psixologik asoslari. Psixologiya jurnali, 4(2).

ISSN 3030-3907

OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Muxamedov Umarxon Sobitovich

Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi Fan va texnologiyalar universiteti (USAT)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun’iy intellektning o‘quv jarayonini individuallashtirish, kredit-modul tizimida talaba faoliyatini monitoring qilish, o‘quv analitikasi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, akademik maslahat berish va ta’lim sifatini boshqarishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada sun’iy intellekt oliy ta’limda oddiy texnik vosita emas, balki ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi intellektual pedagogik infratuzilma sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, axborot xavfsizligi, algoritmik xolislik, inson omilini saqlash va pedagogik nazorat masalalari ham muhokama qilinadi. Tadqiqot yakunida oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellektni samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, oliy ta’lim, ta’lim samaradorligi, o‘quv analitikasi, kredit-modul tizimi, raqamli pedagogika, akademik halollik, ta’lim sifati, individual ta’lim.

Annotation. This article analyzes the issues of improving educational efficiency through the use of artificial intelligence technologies in higher education. The study examines the potential of artificial intelligence in personalizing learning, monitoring student activity in the credit-module system, learning analytics, supporting research activities, academic advising, and managing the quality of education. The article interprets artificial intelligence not merely as a technical tool, but as an intellectual pedagogical infrastructure that can improve the effectiveness of the educational process. At the same time, the study discusses issues related to academic integrity, information security, algorithmic fairness, preservation of the human factor, and pedagogical control. The article concludes with scientific and practical recommendations for the effective implementation of artificial intelligence in higher education institutions.

Keywords: artificial intelligence, higher education, educational efficiency, learning analytics, credit-module system, digital pedagogy, academic integrity, quality of education, personalized learning.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы повышения эффективности образования в системе

высшего образования посредством использования технологий искусственного интеллекта. В исследовании раскрываются возможности искусственного интеллекта в области индивидуализации образовательного процесса, мониторинга деятельности студентов в условиях кредитно-модульной системы, образовательной аналитики, поддержки научно-исследовательской деятельности, академического консультирования и управления качеством образования. В статье искусственный интеллект рассматривается не как обычное техническое средство, а как интеллектуальная педагогическая инфраструктура, способствующая повышению эффективности образовательного процесса в высшей школе. Вместе с тем обсуждаются вопросы академической честности, информационной безопасности, алгоритмической объективности, сохранения человеческого фактора и педагогического контроля при использовании искусственного интеллекта. В завершение исследования предлагаются научно-практические рекомендации по эффективному внедрению технологий искусственного интеллекта в деятельность высших учебных заведений.

Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, эффективность образования, образовательная аналитика, кредитно-модульная система, цифровая педагогика, академическая честность, качество образования, индивидуализированное обучение.

KIRISH.

Oliy ta’lim tizimi jamiyatning intellektual, ilmiy va kasbiy salohiyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Zamonaviy taraqqiyot sharoitida oliy ta’lim oldiga faqat mutaxassis tayyorlash vazifasi emas, balki mustaqil fikrlaydigan, innovatsion yondasha oladigan, raqamli kompetensiyalarga ega va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyor kadrlarni shakllantirish vazifasi ham qo‘yilmoqda. Shu sababli oliy ta’limda ta’lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biridir.

Raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari oliy ta’lim tizimiga faol kirib kelmoqda. Sun’iy intellekt o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish, baholash jarayonini optimallashtirish, ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. UNESCO generativ sun’iy intellekt bo‘yicha yo‘riqnomasida bunday texnologiyalarni ta’lim va tadqiqotda inson markazli yondashuv asosida qo‘llash, siyosat, tartibga solish va inson salohiyatini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning o‘ziga

ISSN 3030-3907

xos jihati shundaki, bu texnologiyalar nafaqat dars jarayonida, balki butun akademik muhitda — o‘quv rejalarini takomillashtirish, talabalar faoliyatini tahlil qilish, ilmiy rahbarlik, universitet boshqaruvi va ta’lim sifati monitoringida ham qo‘llanishi mumkin. EDUCAUSE Horizon Report 2024 oliy ta’limda o‘qitish va o‘rganish kelajagini belgilovchi asosiy texnologik va amaliy tendensiyalar orasida sun’iy intellektga alohida e’tibor qaratadi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektni oliy ta’limga joriy etish bir qator savollarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, sun’iy intellekt talabaning mustaqil fikrlashini kuchaytiradimi yoki tayyor javoblarga qaramlikni oshiradimi? Avtomatik baholash o‘qituvchining pedagogik xulosasini almashtira oladimi? Ta’lim samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellektdan qanday didaktik shartlar asosida foydalanish kerak? Mazkur maqola aynan shu savollarga ilmiy-nazariy javob izlashga qaratilgan.

METODLAR.

Maqolada ilmiy-nazariy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish va hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-nazariy tahlil orqali sun’iy intellektning oliy ta’lim samaradorligiga ta’siri bilan bog‘liq asosiy tushunchalar o‘rganildi. Tizimli yondashuv sun’iy intellektni o‘quv jarayoni, universitet boshqaruvi, ilmiy faoliyat, baholash tizimi va talaba-o‘qituvchi munosabatlari bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar va oliy ta’lim amaliyotidagi ehtiyojlar o‘zaro taqqoslandi. Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida UNESCO, OECD, European Commission va EDUCAUSE materiallari asosida sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishning metodik, axloqiy va strategik jihatlari ko‘rib chiqildi. OECDning “AI and the Future of Skills” tadqiqoti sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘lchash va ularni ta’lim hamda kasbiy ko‘nikmalar bilan bog‘lashga qaratilgan yondashuvlarni tavsiflaydi. Maqolada empirik so‘rov o‘tkazilmagan, biroq mavjud ilmiy va xalqaro manbalar asosida nazariy umumlashtirish amalga oshirildi. Tahlil mezonlari sifatida quyidagilar tanlandi: ta’lim samaradorligi, individual yondashuv, talaba faolligi, baholash sifati, o‘quv analitikasi, o‘qituvchi faoliyati, akademik halollik va axborot xavfsizligi.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim samaradorligini bir necha muhim yo‘nalishda oshirishi mumkin.

Birinchidan, sun’iy intellekt talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta’limda talabalar bilim darajasi, qiziqishi,

ISSN 3030-3907

o‘zlashtirish tezligi va kasbiy maqsadlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar talabaning o‘quv faoliyatini tahlil qilib, unga mos o‘quv materiallari, qo‘shimcha topshiriqlar, mustaqil ta’lim yo‘nalishlari va tavsiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Bu jarayon talabaning passiv tinglovchi emas, balki o‘z o‘quv faoliyatini boshqaruvchi subyektga aylanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt kredit-modul tizimida talabaning o‘zlashtirishini uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi. Kredit-modul tizimida talabaning semestr davomida muntazam faol bo‘lishi, mustaqil ishlarni o‘z vaqtida bajarishi va oraliq nazoratlarda izchil ishtirok etishi muhimdir. Sun’iy intellekt esa talabalar faoliyatidagi sustlashuv, topshiriqlarni kechiktirish, ayrim mavzularda qiyinchilikka duch kelish kabi holatlarni erta aniqlashi mumkin. Bu esa akademik maslahatchi va o‘qituvchiga talaba bilan individual ishlash imkonini beradi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt o‘quv analitikasini rivojlantiradi. O‘quv analitikasi talabalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, baholari, platformadagi faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi va o‘zlashtirish dinamikasini tahlil qilish orqali ta’lim sifatini boshqarishga yordam beradi. Bunday yondashuv universitet boshqaruviga qaysi fanlarda talabalar ko‘proq qiynalayotgani, qaysi metodlar samaraliroq ekani, qaysi guruhlarda qo‘shimcha yordam zarurligini aniqlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi dars materiallarini tayyorlash, testlar tuzish, keyslar ishlab chiqish, talabalar savollariga tezkor javob berish, mavzular bo‘yicha qo‘shimcha manbalarni saralashda sun’iy intellektdan foydalanishi mumkin. Bu o‘qituvchini texnik va takroriy vazifalardan qisman ozod etib, uning ko‘proq ilmiy, metodik va tarbiyaviy ishlarga e’tibor qaratishiga sharoit yaratadi.

Beshinchidan, sun’iy intellekt ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligi ilmiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Sun’iy intellekt ilmiy adabiyotlarni qidirish, mavzularni tasniflash, bibliografik tahlil qilish, ilmiy matnlarni tahrirlash, tadqiqot savollarini shakllantirish va ma’lumotlarni tahlil qilishda yordamchi vosita bo‘lishi mumkin. Biroq bunda ilmiy halollik, manbalarni to‘g‘ri ko‘rsatish va mualliflik mas’uliyati qat’iy saqlanishi lozim.

Oltinchidan, sun’iy intellekt akademik maslahat va talaba qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantiradi. Talabalar o‘quv reja, fan tanlovi, mustaqil ta’lim, ilmiy ish yozish, adabiyotlar qidirish va kasbiy rivojlanish bo‘yicha turli savollarga ega bo‘ladi. AI yordamchi tizimlari bunday savollarga dastlabki tavsiyalar berishi mumkin. Bu, ayniqsa, talabalar soni ko‘p bo‘lgan oliy ta’lim muassasalarida akademik xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

MUHOKAMA.

Oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq bu jarayon avtomatik tarzda ijobiy natija bermaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining samarasi ularning qanday pedagogik maqsadga xizmat qilishi, o‘qituvchi tomonidan qanday boshqarilishi va talaba tomonidan qanday madaniyat bilan foydalanilishiga bog‘liq.

Birinchi muhim masala — sun’iy intellektni ta’lim maqsadlariga moslashtirishdir. Ba’zi hollarda sun’iy intellektdan foydalanish tashqi ko‘rinishda zamonaviylik belgisi sifatida qabul qilinadi, ammo u real ta’lim natijalariga ta’sir qilmasligi mumkin. Shuning uchun har bir AI vositasi aniq didaktik vazifaga xizmat qilishi lozim: bilimni mustahkamlash, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatni hal qilish, individual maslahat berish yoki baholash sifatini oshirish.

Ikkinchi masala — akademik halollikdir. Generativ sun’iy intellekt talabalar uchun referat, esse, kurs ishi yoki ilmiy maqola matnini tez yaratish imkonini beradi. Bu esa bir tomondan yozish jarayonini o‘rganishda yordam bersa, ikkinchi tomondan tayyor matnni o‘z ishi sifatida topshirish xavfini kuchaytiradi. UNESCO generativ AI bo‘yicha yo‘riqnomasida bunday texnologiyalarni ta’lim va tadqiqotda foydali hamda insonni kuchaytiruvchi vositaga aylantirish uchun siyosat, tartibga solish va inson salohiyatini rivojlantirish zarurligini qayd etadi.

Uchinchi masala — baholash tizimini qayta ko‘rib chiqishdir. Agar talaba istalgan yozma topshiriqni sun’iy intellekt yordamida bajara olsa, an’anaviy referat va yozma ishlar talabaning real bilimini to‘liq ko‘rsatmasligi mumkin. Shu sababli oliy ta’limda baholash ko‘proq jarayonni baholash, og‘zaki himoya, loyiha ishi, amaliy topshiriq, individual refleksiya, auditoriyadagi muhokama va ijodiy yechimlarga asoslanishi kerak.

To‘rtinchi masala — algoritmik xolislikdir. Sun’iy intellekt tizimlari mavjud ma’lumotlar asosida ishlaydi. Agar ma’lumotlarda xatolik, stereotip yoki nomutanosiblik bo‘lsa, AI tavsiyalari ham adolatsiz bo‘lishi mumkin. European Commission AI va ma’lumotlardan ta’limda foydalanish bo‘yicha axloqiy yo‘riqnomasida pedagoglar AI tizimlarining imkoniyatlarini tushunishi, xavflarni anglay olishi va ulardan tanqidiy hamda axloqiy foydalanishi zarurligini ta’kidlaydi.

Beshinchi masala — o‘qituvchi rolining o‘zgarishidir. Sun’iy intellekt o‘qituvchining ayrim texnik vazifalarini yengillashtiradi, lekin uning pedagogik, metodik va tarbiyaviy rolini bekor qilmaydi. Aksincha, AI sharoitida o‘qituvchi yanada muhimroq vazifani bajaradi: u talabaga bilimni tanlash, tekshirish, tahlil qilish, muqobil fikrlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

ISSN 3030-3907

Demak, AI davrida o‘qituvchi axborot manbai emas, balki ilmiy tafakkurni boshqaruvchi va akademik madaniyatni shakllantiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Oltinchi masala — oliy ta’lim muassasalarining institutsional tayyorgarligidir. AI vositalarini samarali joriy etish uchun universitetlarda raqamli infratuzilma, elektron platformalar, o‘qituvchilar malakasini oshirish, ma’lumotlar xavfsizligi siyosati va akademik halollik kodeksi mavjud bo‘lishi kerak. Bularsiz sun’iy intellektdan foydalanish tartibsiz, nazoratsiz va samarasi past jarayonga aylanishi mumkin.

TAKLIFLAR.

Oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha alohida institutsional strategiya ishlab chiqilishi lozim. Bu strategiyada AI vositalaridan foydalanish maqsadlari, chegaralari, axloqiy talablar va mas’ul subyektlar aniq belgilanishi kerak;

Ikkinchidan, o‘qituvchilar uchun “AI savodxonligi”, “raqamli didaktika”, “o‘quv analitikasi”, “generativ AI bilan ishlash madaniyati” va “akademik halollik” yo‘nalishlarida malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur;

Uchinchidan, kredit-modul tizimida talabalarning o‘zlashtirishi, mustaqil ishi va akademik faolligini tahlil qiluvchi o‘quv analitikasi platformalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq;

To‘rtinchidan, baholash tizimida AI yordamida bajarilgan topshiriqlarni aniqlashdan ko‘ra, talabaning real fikrlash jarayonini baholashga ustuvorlik berish lozim. Buning uchun og‘zaki himoya, amaliy loyiha, keys tahlili, auditoriya muhokamasi va reflektiv yozuvlardan keng foydalanish kerak;

Beshinchidan, talabalar uchun sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha qisqa metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur. Unda AI yordamida izlanish, reja tuzish, fikrni tekshirish, manba bilan ishlash va plagiatdan saqlanish qoidalari ko‘rsatilishi kerak;

Oltinchidan, AI vositalaridan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, mualliflik huquqi va ilmiy halollik masalalari qat’iy nazorat qilinishi zarur;

Yettinchidan, oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligini baholash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilishi kerak. Bunday mezonlar talaba faolligi, o‘zlashtirish dinamikasi, mustaqil fikrlash, akademik halollik, o‘qituvchi yuklamasi va ta’lim sifatidagi real o‘zgarishlarni qamrab olishi lozim.

XULOSA.

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim innovatsion omillaridan biridir. U talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, kredit-modul tizimida o‘zlashtirishni monitoring qilish, o‘quv analitikasini rivojlantirish, o‘qituvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot jarayonini takomillashtirish va akademik maslahat tizimini kuchaytirish imkonini beradi.

Biroq sun’iy intellektdan foydalanish ta’limda inson omilini chetga surmasligi kerak. Aksincha, AI o‘qituvchi va talabaning intellektual imkoniyatlarini kengaytiruvchi, o‘quv jarayonini tahliliy va individual asosda tashkil etishga yordam beruvchi vosita bo‘lishi lozim. Ta’lim samaradorligi texnologiyaning o‘zi bilan emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda va qanday madaniyat bilan foydalanilishi bilan belgilanadi.

Shu sababli oliy ta’limda sun’iy intellektni joriy etish puxta metodik asos, axloqiy nazorat, akademik halollik, raqamli kompetensiya va institutsional strategiya bilan uyg‘unlashgandagina samarali natija beradi. Kelajak oliy ta’limi inson tafakkuri va sun’iy intellekt hamkorligiga asoslangan, lekin ilmiy halollik, tanqidiy fikrlash va pedagogik mas’uliyatni markazda saqlagan ta’lim modeli sifatida rivojlanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris: UNESCO, 2023.
2. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. — Paris: UNESCO, 2021.
3. OECD. AI and the Future of Skills, Volume 2: Methods for Evaluating AI Capabilities. — Paris: OECD Publishing, 2023.
4. European Commission. Ethical Guidelines on the Use of Artificial Intelligence and Data in Teaching and Learning for Educators. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
5. EDUCAUSE. 2024 EDUCAUSE Horizon Report: Teaching and Learning Edition. — Boulder, CO: EDUCAUSE, 2024.
6. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
7. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. — London: Pearson, 2016.
8. Zawacki-Richter O., Marín V. I., Bond M., Gouverneur F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education //

ISSN 3030-3907

International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2019. — Vol. 16. — Article 39.
9. Chen L., Chen P., Lin Z. Artificial Intelligence in Education: A Review // IEEE Access. — 2020. — Vol. 8. — P. 75264–75278.
10. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. — Cambridge: Polity Press, 2019.
11. Williamson B., Eynon R., Potter J. Pandemic Politics, Pedagogies and Practices: Digital Technologies and Distance Education during the Coronavirus Emergency // Learning, Media and Technology. — 2020. — Vol. 45. — № 2. — P. 107–114.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. — Toshkent, 2020.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. — Toshkent, 2023.

ISSN 3030-3907

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI TA’SIRI

Payazov Mirabbos Mirahmatovich
Aniq fanlar kafedrasi dotsenti, PhD Fan va texnologiyalar universiteti (USAT)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ta’lim sifatini oshirishga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda sun’iy intellektning individual ta’lim, o‘quv jarayonini boshqarish, baholash tizimi, o‘qituvchi faoliyati, ta’lim resurslarini yaratish va talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan akademik halollik, ma’lumotlar xavfsizligi, pedagogik nazorat va inson omilining saqlanishi bilan bog‘liq muammolar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin, biroq u o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi emas, balki pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi texnologik yordamchi sifatida qo‘llanilishi lozim.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’lim sifati, raqamli ta’lim, individual ta’lim, innovatsion pedagogika, baholash, akademik halollik, raqamli kompetensiya.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the impact of artificial intelligence technologies on improving the quality of education. It examines the opportunities of artificial intelligence in personalized learning, educational process management, assessment systems, teacher support, creation of educational resources, and development of students’ independent learning skills. The article also analyzes challenges related to academic integrity, data security, pedagogical control, and the preservation of the human factor in education. The results of the study show that artificial intelligence can serve as an effective tool for improving the quality of education; however, it should not replace the teacher but rather function as a technological assistant that supports pedagogical activity.

Keywords: artificial intelligence, quality of education, digital learning, personalized learning, innovative pedagogy, assessment, academic integrity, digital competence.

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ влияния использования технологий искусственного интеллекта на повышение качества образования. Освещаются возможности искусственного интеллекта в сфере индивидуализированного обучения, управления образовательным процессом, системы оценивания, деятельности преподавателя, создания образовательных ресурсов и развития навыков самостоятельного обучения студентов. Кроме того, в статье рассматриваются проблемы, возникающие в процессе применения искусственного интеллекта, связанные с академической честностью, безопасностью данных,

ISSN 3030-3907

педагогическим контролем и сохранением роли человеческого фактора. Результаты исследования показывают, что искусственный интеллект может выступать эффективным инструментом повышения качества образования, однако его следует использовать не как замену преподавателя, а как технологического помощника, поддерживающего педагогическую деятельность.

Ключевые слова: искусственный интеллект, качество образования, цифровое образование, индивидуализированное обучение, инновационная педагогика, оценивание, академическая честность, цифровая компетентность.

KIRISH.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Axborot oqimining tezlashuvi, mehnat bozorida yangi kasblarning yuzaga kelishi, raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi ta’lim sifatini oshirish masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mustaqil qaror qabul qilish, axborotni tahlil qilish va amaliy muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishi zarur.

Shu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning bilim darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish, ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, o‘qituvchiga tahliliy ma’lumotlar taqdim etish va baholash jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellektdan foydalanish talabalarning mustaqil ta’lim olish salohiyatini kuchaytirish, o‘quv materiallarini shaxsiylashtirish va ta’lim sifatini monitoring qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq sun’iy intellektdan foydalanish ta’limda faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmaydi. Mazkur texnologiyalar akademik halollik, plagiat, tayyor javoblarga haddan tashqari tayanish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining susayishi, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va pedagogik nazoratning zaiflashuvi kabi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois sun’iy intellekt ta’lim jarayoniga puxta metodik asosda, axloqiy mezonlar va pedagogik maqsadlarga mos holda joriy etilishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi sun’iy intellektdan foydalanishning ta’lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari, samaradorlik omillari va mavjud muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

METODLAR.

ISSN 3030-3907

Maqolani tayyorlashda ilmiy-nazariy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va pedagogik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-nazariy tahlil yordamida sun’iy intellektning ta’lim sifatiga ta’siri bilan bog‘liq asosiy tushunchalar, yondashuvlar va pedagogik imkoniyatlar o‘rganildi. Tizimli yondashuv orqali sun’iy intellekt ta’lim jarayonining turli tarkibiy qismlari — o‘qituvchi faoliyati, talaba faolligi, baholash tizimi, o‘quv resurslari, individual ta’lim va ta’lim boshqaruvi bilan bog‘liq holda tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi sun’iy intellektdan foydalanishning an’anaviy ta’lim texnologiyalari bilan farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Pedagogik umumlashtirish metodi esa sun’iy intellekt vositalaridan ta’lim sifatini oshirishda foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqotda sun’iy intellektning ta’limdagi vazifalari quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi: ta’limning individuallashuvi, o‘quv natijalarining monitoringi, baholashning obyektivligi, o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi, talabalarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, raqamli kompetensiyalar va akademik halollik.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishga bir necha yo‘nalishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, sun’iy intellekt ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. An’anaviy ta’limda ko‘pincha barcha o‘quvchilar bir xil dastur va bir xil sur’atda o‘qitiladi. Biroq o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi, o‘zlashtirish tezligi va ehtiyojlari turlicha bo‘ladi. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari esa har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriq, tushuntirish yoki qo‘shimcha material tavsiya qilishi mumkin. Bu ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt baholash jarayonini takomillashtiradi. Test natijalari, yozma ishlar, topshiriqlar va faoliyat ko‘rsatkichlarini avtomatik tahlil qilish orqali o‘qituvchi talabaning kuchli va zaif tomonlarini tezroq aniqlashi mumkin. Bu esa baholash jarayonining tezkorligi va tahliliy asoslanganligini oshiradi. Shu bilan birga, baholashda faqat avtomatik natijalarga tayanish yetarli emas; yakuniy pedagogik xulosa o‘qituvchi tomonidan berilishi zarur.

Uchinchidan, sun’iy intellekt o‘qituvchining vaqtini tejaydi va uning metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, dars rejalari, test savollari, keyslar, topshiriqlar, taqdimotlar va qo‘shimcha o‘quv materiallarini tayyorlashda sun’iy intellekt yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Natijada o‘qituvchi ko‘proq vaqtini talabalarning fikrlashini rivojlantirish, muhokama

ISSN 3030-3907

tashkil etish, individual maslahat berish va ijodiy topshiriqlarni boshqarishga sarflashi mumkin.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talaba sun’iy intellekt yordamida murakkab mavzular bo‘yicha izoh, misol, savol-javob, reja yoki tahliliy material olishi mumkin. Biroq bu jarayonda talaba tayyor javobni ko‘chirib olish emas, balki undan bilimni chuqurlashtirish, fikrni tekshirish va yangi savollar shakllantirish uchun foydalanishi lozim.

Beshinchidan, sun’iy intellekt ta’lim boshqaruvi va monitoringini kuchaytiradi. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarning davomati, o‘zlashtirish darajasi, fanlar bo‘yicha natijalari, qiyinchilikka duch kelayotgan mavzulari va umumiy ta’lim dinamikasini tahlil qilish orqali sifatni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ta’lim jarayonida muammolarni erta aniqlash va ularga tezkor yechim topishga yordam beradi.

Oltinchidan, sun’iy intellekt inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, matnni ovozga aylantirish, ovozni matnga aylantirish, avtomatik tarjima, moslashtirilgan o‘quv materiallari va virtual yordamchilar turli ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun ta’limdan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Bu esa ta’limda teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA.

